

Marifat

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqqan boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 4-mart chorshanba №9(9594)

NEGA

FAQAT

AMIR TEMUR?

8-, 9-, 10 – betlar



“CHINGIZ TO‘RASINI G‘ARIB RIOYAT QILURLAR EDI...”

7-bet

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



Norvegiya maktablarida mobil telefonlarni taqiqlash ijobiy natija beribdi. O'qituvchilarga ham dars vaqti telefondan foydalanishni taqiqlash kerak. Avvalo o'zimiz namuna bo'lishimiz zarur.

Men darsga telefonimni doim o'chirib kiraman, stolim ustida turadi. Dars vaqti yo'lakka chiqib telefonda gaplashayotgan o'qituvchilarni ko'rsam jahlim chiqadi. Ko'p bora dakki ham berganman.

Norchuchuk NORMURODOVA

Sertifikat, attestatsiyalarning bori yaxshi. Chunki haqiqiy bilimli ustozlarni aniqlash, ularni yuzaga chiqarishga imkon bermoqda. Sertifikat olib maktabda obro'yim oshdi. Rahbarlarning munosabati o'zgardi. Ilm yaxshi narsa-da, o'sha o'zini bilimli sanaganlarni isloh qiladi. Necha yillar qiynalдим, nega ustama olmayman, tanish-bilish deb, endi qiynalmayman. Hozir 50 foiz ustama olyapman.

Hilola MAMAJONOVA

Munosabat



“Adabiyot gazetasi”da e’lon qilingan(2025-yil 6-oktabr, 13-son) O’zbekiston Respublikasi FA Tarix instituti direktori, akademik Azamat Ziyoning “**Turon sivilizatsiyasidan Yangi O’zbekistongacha**” nomli maqolasini o’qib chiqdim. To’g’risini aytsam, maqola menda muallifning ilmiy salohiyati darajasiga nisbatan shubha uyg’otdi. Sababi – 8 betlik maqolada o’zim uchun uchta yangilik o’qidim, xolos. Bular:

1. Payg’ambarimiz(s.a.v.)ning turk tilini o’rganish haqidagi hadisi.
 2. Fayzulla Xo’jayevning Rossiyadan 155000 rubl olganligi.
 3. SSSR rahbarlaridan biri Mixail Kalininga Samarqand vokzalida qo’r-boshining kesilgan boshi ko’rsatilgani.
- To’g’ri, sovet tuzumi davrida o’zbek xalqi o’z davlatiga 1917-yilning oktabr oyida Rossiyada yuz bergan inqilob tufayli 1924-yilda ega bo’ldi, deb yozib kelindi.

Sobiq sovet tuzumi davrida umumiy o’rta ta’lim maktablarida O’zbekiston tarixining soxtalashtirilgan nusxasi o’qitib kelingani bor haqiqatdir. Bu soxtakorlik 4–10-sinflar uchun yozilgan “O’zbekiston SSR tarixi” darsliklarining barchasiga xos edi. Xususan, Komil Oqilov tomonidan 4-sinflar uchun yozilgan “O’zbekiston SSR tarixidan hikoyalar”(T.1987) darsligida Amir Temurga bag’ishlangan hikoya matnlariga “**Temurning bosqinchilik yurishlari**” va “**Temurning zolimligi**” nomli sarlavha qo’yilgan. “Temurning zolimligi” mavzusi matnida quyidagilar yozilgan: “**Temur juda zolim edi. U butun dunyoni o’ziga bo’ysundirmoqchi bo’ldi. Temur odamlarning boshlarini kestirib, shu boshlardan baland minoralar qurdirar edi. Bolalar qul qilib sotilardi(29-30-betlar). Xitoyga yangi yurish vaqtida, qahraton qish kechalari-ning birida, dahshatli istilochi Temurlang vafot etdi(31-bet)**”.

Darslikning 125-betidagi “Shonli yakunlar” mavzusida Vladimir Lenin yubileyi haqida ma’lumot berilgan. Ayni paytda, shoir Yusuf Shomansurning Leninga bag’ishlangan “Ta’zim” she’ri ham shu mavzudan o’rin olgan.

Darslik so’ngida esa O’zbekiston SSR Davlat gimni(madhiya) keltirilgan. Mana, gimnning dastlaki to’rt misrasi:

*Assalom rus xalqi, buyuk og’amiz,
Barhayot dohiymiz Lenin jonajon!
Ozodlik yo’lini Siz ko’rsatdingiz,
Sovetlar yurtida o’zbek topdi shon.*

Sovet davri O’zbekiston tarixi darsliklarini yaratishda qudratli kommunistik mafkura hatto akademik Yahyo G’ulomovdek olimlarni ham o’z domiga tortganligiga guvoh bo’lamiz.

Yahyo G’ulomov 1977-yili 7-8-sinflar uchun “O’zbekiston SSR tarixidan o’quv qo’llanma” yozgan. Qo’llanmaning 13-mavzusi “**Temur davlati**” deb nomlangan(55-bet) va quyidagi matn berilgan: “**Temur o’ziga xos tashkilotchilik qobiliyatiga va harbiy talantga ega edi. U nozik siyosatchi va zo’r davlat arbobi. Lekin shu bilan birga, u jahon tarixining hamma davrlarida o’tgan eng shafqatsiz hukmdorlardan biri edi. Temur zabt etgan mam-lakatlarni xarob qildi. Aholi boshiga og’ir kulfat keltirdi. Oltin O’rda poy-**

taxti Saroy shahrini yer bilan yakson qildi. Temur o’n minglab odamlar-ni boshini kestirib kallalaridan minoralar yasash, minglab kishilarni tiriklayin ko’mdirib yuborish kabi mudhish ishlarni qildi”.

Qo’llanmaning IX bobi: “O’zbekistonning Rossiyaga qo’shib olinishi va uning progressiv ahamiyati” deb nomlangan.

Tarixchi olimlar Mahmud Musayev va Ra’no O’rmonaliyevlarning 9-10-sinflar uchun yozgan “O’zbekiston SSR tarixi” darsligi(T.1968) haqida ham yuqoridagi fikrlarni aytish mumkin. Chunonchi, darslikning “**Sotsialistik qurilishning boshlanishi**” deb nomlangan 10-mavzusida jumladan quyidagi fikrlar qayd etilgan: “1918-yil 21-aprelda O’lka Sovetlarining V syezdi RSFSR sostavida Turkiston ASSR tuzilganligini e’lon qildi. Syezd bu qarori bilan Turkiston xalqlarining milliy sovet davlati qurilishiga asos soldi”(62-bet).

“**Kontrevolyutsiya dastlabki o’choqlarining tor-mor qilinishi**” mavzusida esa quyidagilar yozilgan edi: “Muxtoriyatchilar”ning kontrevolyutsiya maqsadlarini ko’zlaganliklariga ishonch hosil qilgan Turkiston mehnatkash ommasi ularga qat’iyan qarshi chiqib, sovet hukumati tevaragida yanada mustahkamroq jipslashdi.

Ulug’ Oktabr sotsialistik revolyutsiyasi Turkiston xalqlarini milliy mustamlakachilik qulligidan, feodal-burjua asoratidan ozod qildi. O’zbek xalqi Oktabr revolyutsiyasining g’alabasi tufayli Rossiyadagi barcha xalqlar bilan birgalikda o’z milliy davlatini qura boshladi va sotsializm qurilishi yo’liga qadam qo’ydi”.

Ha, biz mustaqillikkacha O’zbekiston tarixini ana shunday cho’pchaklar asosida o’qigan va o’quvchilarimizni o’qitgan edik.

Mayli, ularni qaysidir ma’noda noilojlikdan yoki haqiqatan shundayligiga ishonganlari uchun yozganlar, deb tushunish mumkin. Lekin bugungi kunda ham ularning fikridan biroz farq qiluvchi, mohiyatan esa o’sha fikrni tasdiqlovchi fikrlar ham ilgari surilayotganini qanday tushunish kerak?

Gap shundaki, 2024-yili yangi tashkil etilgan “Vatan” jurnalining 1-sonida Eldor Asanovning (O’zbekiston Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi katta ilmiy xodimi) “**Shayboniyxon shaxsiyati nega e’tiborsiz qolmoqda?**” nomli maqolasi e’lon qilindi. Unda, jumladan, quyidagi fikrlar yozilgan: “**Hozirgi kunda qo’shni Qozog’iston tarixchilari o’z metodikasini jahon akademiyasiga moslashga urinib, qozoq davlatchiligi tarixini XV asrdan Qozoq xonligidan boshlamogdalar. 2015-yilda Qozog’istonda Qozoq xonligining 550 yilligi nishonlandi. Boshqa sohalarda bo’lganidek, tarix-**

TARIX —

chilikda ham ulardan o’rganadigan narsalarimiz bor”(59-bet).

Muallif, shuningdek, amerikalik o’zbekshunos Eduard Ollvort o’zbek xalqi va davlatchiligi tarixini O’zbekxondan va Abdulxayrxondan boshlaydi, deb qayd etadi, hamda “**Shayboniy-lar-ni asosiy xizmati o’zbek xalqi va davlatining tamal toshini qo’yganidir**”, deb uqtiradi.

Shunday bo’lsa, akademik Ahmaddali Asqarov va boshqalar ta’kidlagan “Sopollitepa, Jarqo’tonning yoshi 3500–4000 yilga tengligi, o’zbek davlatchiligining tarixiy ildizlari 4000 yilga borib taqalishi haqidagi ilmiy xulosalar qayerda qoladi?

Azamat Ziyoning O’zbekiston tarixining mustaqillikdan to 2016-yilgacha o’tgan davrini yutqazilgan vaqt deb baholaganligi tarixiy haqiqatga qanchalik mos? Bu fikr o’ta bahstalab hamdir. Sababi, 2016-yilgacha ham bu borada ko’p ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, Birinchi Prezidentimiz, mustaqil O’zbekiston davlatining asoschisi Islom Karimov mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq O’zbekiston tarixi masalasiga alohida e’tibor bergan. Islom Karimovning O’zbekiston tarixidagi muammolar bo’yicha ilgari surgan g’oyalari haqida to’xtalib Azamat Ziyo quyidagilarni yozgan edi: “**Sirasini olganda, “O’zbek davlatchilik tarixi” mavzusini tadqiq etish fikri ushbu satrlar sohibidan shu g’oya bilan tanishgandan so’ng paydo bo’lgandi**”(“O’zbek davlatchiligi tarixi”. T.2000. 4-bet).

1998-yili esa Islom Karimov O’zbekistonning tarixchi olimlari bilan uchrashuv o’tkazib bunday dedi: “**Xo’sh, O’zbekistonning, o’zbek xalqining bugun keng ommaga yetkazishga arziydigan haqqoniy tarixi yaratiladimi, yo’qmi? Mustamlakachi o’ziga qaram bo’lgan xalq haqida qachon xolis, adolatli fikr aytgan?**

Ular bor kuch-qudratini Turkistonning o’tmishini kamsitishga, bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar. **Tarixdan judo bo’lish** nimaligini bil-sangiz kerak. Inson uchun tarixdan judo bo’lish – hayotdan judo bo’lish demakdir... Ajablanadigan joyi yana shundaki, tariximiz haqida gap ketganida, biz hamon Rossiya olimlarining tadqiqotlariga tayanamiz, iqtibos keltiramiz: Bartold unday degan, Gumilyov bunday degan va h.k... Qachongacha biz tariximizni birovlarining nuqtayi nazar, qarichi bilan baholaymiz... Mutaxassislar nima bilan mashg’ul, qayoqqa qarashyapti? Nima emish, O’zbekiston XX asrning 20-yillarida, aniqrog’i, 1924-yili davlat maqomini olgan emish... Yangidan shakllanayotgan o’zbek davlatchiligi boshida turgan inson sifatida aytishga haqqim bor. Lekin faqat bir men emas, butun xalq bilishni istaydi: **O’zbek davlatchiligi qaysi asrda paydo bo’lgan?**..

Hozircha na matbuotdan, na darsliklardan men mana shu savolga javob topoldim... Qachon lo’nda, asosli qilib haqiqiy tariximizni farzandlarimizga

yetkazasizlar? Davlatchilik bugungi kunda o’ta siyosiy masala bo’lib turibdi. Nega deganda, O’zbekistonda davlatchilik bo’lmagan, deb orqavarotdan tashviqot yuritayotgan, xalqaro jamoatchilikni shunga ishontrishga urinayotgan kuchlar bor.

O’zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasi mana shu da’voning puch ekanligini isbotlash, davlatchiligimizning ilmiy nuqtayi nazardan asoslangan tarixini yaratishdir. Qadim ajdodlarimiz hayotining asosini o’troq madaniyat tashkil etganmi yo ko’chmanchilikmi?

O’zbek xalqining shakllanishida qanday elatlarning ta’siri bo’lgan? Bu og’ir savollarga javob topishimiz zarur... Sizlar millatimizning haqqoniy tarixini yaratib bering, toki u xalqimizga ma’naviy kuch-qudrat baxsh etsin, g’ururini uyg’otsin. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o’zlikni anglash mumkin emas”.

Islom Karimov uchrashuvda tegishli muassasalar oldiga birinchi navbatda ko’p mingyillik boy tariximizni tadqiq etishning yaxlit konsepsiyasini yaratish vazifasini qo’ydi.

Bundan tashqari, 1998-yilning 27-iyulida Vazirlar Mahkamasi “**O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to’g’risida**” qaror ham qabul qildi (315-son). Qarorda Tarix instituti faoliyatining bosh maqsadi – **O’zbek xalqi, uning davlatchiligi tarixini haqqoniy o’rganish**, ilmiy natijalar asosida ilmiy-ommabop asarlar, darsliklar, turli adabiyotlar yaratish va mazkur bilimlarni keng yoyish hamda tarix sohasida yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash ekanligi belgilab berildi.

Chunonchi, 2000-yili Azamat Ziyoning “O’zbek davlatchiligi tarixi” kitobi chop etildi, ungacha uning mazkur kitobdan joy olgan mavzular bo’yicha tayyorlangan maqolalari “O’zbekiston ovozi” gazetasining qator sonlarida e’lon qilib borildi. Kitobda Azamat Ziyo O’zbek davlatchiligi tarixi 2700 yil bilan o’lchanishini qayd etgan.

O’zbekiston tarixi masalasiga e’tiborni kuchaytirish uchun “O’zbekistonning yangi tarixi markazi” tashkil etildi. Markaz 3 kitobdan iborat “O’zbekistonning yangi tarixi”ni tayyorladi va akademik Bo’riboy Ahmedovning kirish so’zi bilan 2000-yili chop etildi.

2010-yili Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti tomonidan 3 kitobdan iborat “Vatan tarixi”ni, 2011-yili esa Markaz Hamdam Sodiqov va Narzulla Jo’rayevlar hammuallifligida 3 kitobdan iborat “**O’zbekiston tarixi**”ni chop ettirdi. Bulardan tashqari, professor Hamid Ziyoyevning “Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash”(1998), “Tarix – o’tmish va kelajak ko’zgusi”(2000), “Sibir, Volga va Ural bo’ylaridagi o’zbeklar”(2003), 1999-yili “Qadimgi O’zbekiston sivilizatsiyasi” (2004) kabi asarlar hamda

bugungi kun uchun o'g'itdir

zatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixi". 2000-yili Aziz Qayumov va boshqalar hammuallifligida "Qadimgi yozma yodgorliklar", 2015-yili Qahramon Rajabovning "Farg'ona vodiysidagi istiqloqlilik harakati(1918–1924)", 2013-yili To'xtasin Mo'minovning "Turkiston ikki asr girdobida", Bo'riboy Ahmedovning "Tarixdan saboqlar", 2015-yili Ahmadali Asqarovning "O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi", 1996-yili "Amir Temur jahon tarixida" kabi qator kitoblari dunyo yuzini ko'rdi.

O'zbekiston FA Tarix instituti rus tilida "История Узбекистана. Том III(XVI – первая половина XIX века)", "История государственности Узбекистана"(3 jildli) kitoblari ham nashr ettirdi.

Bundan tashqari, 2016-yilgacha ham ulug'larimizning ulug'ligini yanada ulug'lash maqsadida ko'p ishlar qilindi. Chunonchi, 1996-yili tariximizda ilk bor Amir Temurning 660 yilligi UNESCO shafeligida keng nishonlandi.

Buyuk bobomiz Amir Temur haqida Islom Karimov bunday degan edi: "Amir Temur bizning faxrimiz, iftixorimiz, g'ururimiz".

Sobiq Karl Marks xiyobonida Buyuk Temurning ot ustidagi ulkan haykali o'rnatildi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi barpo etildi. Davlatning yuksak mukofotlaridan biri "Amir Temur" ordeni ta'sis etildi.

Milliy qahramon Jaloliddin Manguberdining ulug' nomi tiklandi. U haqida Islom Karimov quyidagilarni yozgan edi: "Jaloliddin Manguberdi ona Vatan himoyachisi, jasur sarkarda, xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan milliy qahramon".

1999-yili Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi keng nishonlandi. Xorazmda unga haykal o'rnatildi. 2000-yilda esa "Jaloliddin Manguberdi" ordeni ta'sis etildi.

Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, shuningdek, islom dini ulamolarining yubileylari nishonlandi, ulug' nomlari keng targ'ib etildi. Qur'oni karim mazmunining o'zbek tiliga o'girilishi ma'naviy hayotimizdagi eng katta voqealardan biri bo'ldi.

Mashhur shaharlarimizning mashhurligini yanada oshirish maqsadida ularning yubileylari nishonlandi.

1004-yili tashkil etilgan Xorazm Ma'mun akademiyasi("Dorul hikmat va maorif") qayta tiklandi va 2006-yili uning 1000 yilligi nishonlandi. "Ilm – insonlar hojatini chiqarmoqlikka xizmat qilsin", degan ibora akademiya alomalarining shiori edi. O'zbekiston FA Xorazm filiali faoliyati yo'lga qo'yildi.

2016-yilgacha jadidchilik harakati namoyandalari yetarlicha ulug'lanmagan bo'lishi mumkin, biroq bu ular yodga olinmadi, degani emas.

Masalan, Ozod Sharafiddinov va Naim Karimovning "Istiqlol fidoyilari" ruknida bu harakatning eng yirik arboblari faoliyatiga oid kitoblari, shuningdek, Begali Qosimovning "Milliy uyg'onish. Jadidchilik" (T.2002),

"Uyg'ongan millat ma'rifati" kabi asarlari chop etildi.

Xalqaro UNESCO tashkiloti hukumtimizning tashabbusi bilan 1999-yili "Avesto"ning 2700 yilligini nishonlash to'g'risida qaror qabul qildi va 2001-yili bu qutlug' sana nishonlandi.

2015-yili esa "Avesto" o'zbek tiliga tarjima qilindi. "Avesto"ning tarixiy ahamiyati haqida Birinchi Prezident Islom Karimov bunday degan edi: **"Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan... tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb 3000 yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan "Avesto" deb atalgan bebaho ma'naviy obida alohida o'rin tutadi.**

Olis ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo'ri mahsuli bo'lmish bu noyob yodgorlikning zamon to'fonlaridan, qancha-qancha og'ir sinovlardan o'tib, bizning davrimizgacha yetib kelganining o'zida katta ma'no mujassam... "Avesto"ning tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" tamoyili hozirgi zamon uchun ham behad ibratli".

O'zbekiston KP MKning Birinchi Sekretari(Kotibi) lavozimida faoliyat yuritgan Islom Karimov tashabbusi bilan Bobur mirzoning qutlug' nomi tiklandi(1990-yil).

Shundan so'ng Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romani hamda Boburning "Boburnoma" asari nashr etildi. Bo'riboy Ahmedovning so'zbo'shisi bilan "Sharq yulduzi" jurnalida "Temur tuzuklari" e'lon qilindi.

Mustaqilligimiz e'lon qilingan yili Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi nishonlandi. Buyuk bobomiz nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etildi. Ul buyuk zot nomidagi Milliy bog' yaratildi.

1990-yil 2-iyunda Islom Karimovning "Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilishi to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi va unga ko'ra 500 kishi ilk bor hajga jo'natildi.

Unutilayotgan Navro'z 1991-yildan Prezident farmoni bilan yana nishonlanadigan bo'ldi. UNESCO qarori bilan 1991-yil 6-noyabrda Termiz shahrida "Alpomish" dostoni yaratilganining 1000 yilligi keng miqyosda nishonlandi.

1997-yildan boshlab Prezident Islom Karimov farmoni bilan 1-oktabr – "O'qituvchi va murabbiylar kuni" sifatida nishonlanib kelinmoqda. Kishilar ma'naviy kamolotida islom dinining katta ahamiyatga egaligini inobatga olib Prezident farmoni bilan 1999-yili Islom universiteti ochildi. 2007-yilda Islom konferensiyasi tashkilotining "Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha islom tashkiloti(ICESCO) Toshkent shahrini Islom madaniyatining poytaxti deb e'lon qildi. O'zbekistonning islom madaniyati va ilmi oldidagi, islom merosi va yodgorliklarini asrash hamda yanada boyitish borasidagi katta xizmatlari uchun Toshkent ana shunday yuksak

e'tirofga sazovor bo'ldi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Biroq sohada qator muammolar hamon o'z yechimini kutib turibdi, garchand ularning yechimi bo'yicha urinishlar qilingan bo'lsa-da.

Ularning orasida kerak bo'lsa, katta siyosiy va mafkuraviy masalalar ham bor. Misol uchun – qo'shni Tojikiston Respublikasi tarixchilari Somoniylar sulolasi tojiklarga mansub deb da'vo qilib chiqqan. Azamat Ziyo nihoyat "Adabiyot gazetasida"gi maqolasida Somoniylarni turkiy sulolalar qatorida sanab o'tibdi. Aslida u "O'zbek davlatchiligi tarixi" kitobida(2000) "Somoniylarning qaysi etnosga taalluqli ekani ham ma'lum emas", deb yozgan edi(92-bet).

2000-yili chop etilgan akademik Abdulahad Muhammadjonovning "O'zbekiston tarixi" kitobida bu muammo chetlab o'tilgan ("O'zbekiston tarixi". Milodning V asridan XV asr boshlarigacha"). Karim Shoniyozov ham "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni" asarida(2001-yil) Somoniylarning kelib chiqishini aniq ochiqqlamagan.

Mazkur masala bilan eng ko'p shug'ullangan olim bu Shamsiddin Kamoliddindir. Chunonchi, 2019-yili uning Ziyodulla Ilhomov bilan hammualliflikda "Samaniy: Из истории государственности Узбекистана в IX–X в.в." nomli kitobi chop etildi. Quyida ushbu kitobdan iqtibos keltiramiz: "В вопросе о происхождении Саман-худата в источниках имеются различные сведения. По некоторым данным, он был потомком сасанидского шаханшаха Бахрама Гура(правил в 420–438 г.г.) или Хусрава I Ануширвана (правил 531–579 г.г.). Однако большинство источников возводит его родословную Бахраму Чубину(VI в), который был полководцем сасанидского шаханшаха Хурмазда IV (правил в 579–590 г.г.) и был сначала марзбаном Армении и Азербайджана, а затем Рея и Хорасана. Имеются также данные, что Бахрам Чубин имел тюркское происхождение и был выходцем из среды тюрков-огузов, находившихся на службе у сасанидов".

Demak, bu o'rinda ham aniq xulosa yo'q. O'zbekiston FA Tarix instituti, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi tomonidan nashr etilgan "O'zbekiston tarixi"(Eng qadimgi davrlardan bugungi kungacha" T.2022) kitobida esa quyidagi ma'lumotlar berilgan: **"To'hiriyarlardan Xurosonni tortib olgan Safforiylar, xususan, Amir ibn Lays xalifalikni mensimaslik yo'lini tanlagan sharoitda, xalifa uning kuchini kesish maqsadida turonlik sulola – Somoniylarni qo'llay boshlagan"**(1-jild. 136-bet). Bu o'rinda savol tug'iladi: "Turonlik sulola" iborasi somoniylar kelib chiqishiga ko'ra turkiydir, degan ma'noni anglatadimi?

Xullas, tarixchi olimlarimiz shu vaqtgacha somoniylarning qaysi etnosga kirishiga to'la aniqlik kirita olganlari yo'q. Bu orada Tojikiston Respublikasi Somoniylar davlatining 1000 yilligini nishonlashga, Ismoil Somoniya ulkan haykal o'rnatishga, milliy valyutasi-ni somon deb atashga, E.Rahmon esa hatto Londonda "Таджики в зеркале истории. От Арийцев до Саманидов" nomli kitobini chiqarishga ulgurdi.

Endi chet ellarda mazkur masalada nashr etilgan ayrim asarlar to'g'risida: 2021-yili Rossiya Federatsiyasi FA akademigi Rustan Raxmanaliyevning 704 betlik "Империя тюрков: История великой цивилизации" asari e'lon qilindi. Asarda turkiy xalqlar tuzgan barcha imperiyalar tarixi yoritilgan. Bu asar bizning Tarix institutimiz o'lchovlariga qanchalik mos yoki mos emas, bu haqida biror narsa deya olmayman, lekin o'zbek olimlari qilishi lozim bo'lgan ishni yaxshidir, yomondir R.Raxmanaliyev qila olganiga tan berish lozim.

2023-yili Moskvada chop etilgan Sharif Mahkamovning "Узбекистан. Полная история страны" kitobida quyidagilarni o'qish mumkin:

"Некоторые историки называют Саманидов династией таджикских правителей, но правильней будет называть их иранской правящей династией, поскольку формирование таджикского этноса в VIII–IX веках еще не было завершено. С таким же успехом можно называть Саманидов афганскими правителями, отталкиваясь от того, что их предок Саман-худат предположительно был родом из окрестностей Балха"(11-bet).

Sharif Mahkamovning fikrlarini tushunsa bo'lar, lekin o'zimizning olimlar("O'zbekiston xalqlari tarixi". T.1992) yozgan mana bu fikrlar haqida nima deyish mumkin: "Rofe ibn Lays qo'zg'olonini bostirishda asli tojik Asad ibn Somon o'g'illari faol qatnashdilar". Karim Shoniyozov "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni" nomli kitobida(T.2001) esa Somoniylar davlatining tojik davlati ekanligiga ishora qilgan(Kitobning 322–324-betlari). Somoniylarning kelib chiqishi haqida akademik Ahmadali Asqarov esa bunday deb yozadi: "Somoniylar davlatini zamonamiz tarixshunosligida qanchalar forsiy davlat sifatida talqin etishga urilmasin, bu davlat ko'p etnosli davlat edi. Uning IX–X asrlar davri davlatchiligi O'rta Osiyoning turkiy va forsiyza-bon xalqlariga bab-baravar tegishlidir" ("O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi" T.2015. 423-bet).

O'zbek olimlari, shu jumladan Azamat Ziyo qilolmagan ishni turk birodarimiz – Aydin Ustaning hal etganligi olimlarimiz uchun achinarlidir, albatta. U **"Ilk musulmon turk davlati. Somoniylar. 874–1005(T.2025)"** nomli kitobida mazkur muammoga ishonarli dalillar asosida nuqta qo'ygan.

(Davomi 4-5-betlarda.)



(Davomi. Boshi 2-3-betlarda.)

Mazkur kitobda “Taqdim”ni tarix fanlari doktori, professor Mirsodiq Is’hoqov yozgan. Unda, jumladan quyidagilarni qayd etgan: “Tadqiqotning muhurligi shundaki, unda turkiy davlatchilik tarixining muammoli bo’g’ini bo’lmish Somoniylar davlatini boshqargan sulolaning kelib chiqishi turkiy qavmlarga, asli ibtidosi Ashina avlodlariga borib taqalishi ishonchli tarzda isbotlangan”(3-bet).

Yana bir achinarli jihat shundaki, Azamat Ziyo “Buyuk ipak yo’li” atamasini qo’llashda ziyrak bo’lishimiz kerakligi haqida endi o’ylay boshlabdi. Uningcha, mazkur yo’lning ahamiyati haqida hozirgacha bildirib kelinayotgan fikrlar “millatimiz va davlatimizdagi o’zlik omilini chippakka chiqaradi. U ham bo’lsa, biz o’zbeklarning tarixi, madaniyati, dini, davlatchiligi ming yillar ichra to’rt tomonidan kirib kelgan turli omillar ta’sirida shakllangandek bo’lib qolmoqda. Go’yoki o’zimizning hech bir vaqomiz bo’lmagandek”.

Shu o’rinda bir savol tug’iladi: “Davlat mustaqilligi yillarida Azamat Ziyo ta’kidlaganidek, aslida ahamiyatsiz bo’lgan “Buyuk ipak yo’li” atamasini va uning ahamiyati haqidagi noilmiy qarashlarni tarix faniga kim kiritgan? Axir buni Azamat Ziyoga o’xshagan akademiklar kiritgan emasmi?(qarang: Akademik Anatoliy Sagdullayev: “Qadimgi dunyo tarixi”. T.2022.148–150-betlar). Akademik Azamat Ziyo va boshqa tarixchilarimizning xatosini chet ellik bo’lsa-da(afsuski), BMT Bosh kotibi Antonio Guterresh to’g’rilab qo’ydi: “Juda ko’p insonlar Markaziy Osiyoni dunyo sivilizatsiyasi chorrahasi deb ataydilar. Bu fikrlar yangilish fikr. Men Markaziy Osiyoni dunyo sivilizatsiyasining markazi deb bilaman. Bunga ishonch hosil qilish uchun Samarqand va Buxoroga borishning o’zi kifoya qiladi” (“Ishonch” gazetasi. 2024-yil 81-son). Bu degani – sivilizatsiya bizdan boshqa o’lkalarga tarqagan, degani emasmi?

Demak, hurmatli Azamat Ziyo, bizning hech vaqomiz yo’q emas, bor, faqat uning borligini ko’rsata oladigan va o’rin uchun kurashadigan olimlarimiz yo’q.

Akademik Azamat Ziyoning “Buyuk ipak yo’li” atamasini fanga 1877-yili olmon geografi kiritganligi, Ipak yo’li-dan boshqa xalqaro savdo yo’llari bo’lganligi haqidagi qaydlari ham yangilik emas.

Maqola muallifining “Kishilik tarixida tutgan sivilizatsiyaviy o’rnimizga qaramay, aynan biz o’zbek millati, Turonning shonli o’tmish yo’li yerga urilib, tilga olinganida ham, biz bilan bog’lanmagan ravishda talqin etib kelinaganini hech kim inkor etolmaydi”, degan iddaosi qanchalik o’rinli? Nahotki, ko’p holatlarni eslagan Azamat Ziyoning esiga buyuk Alisher Navoiyning “El netib topqay menikim, men o’zimni topmasam”, degan purma’no so’zlari kelmagani bo’lsa?



Azamat Ziyo yana bunday deb yozg’iradi: “Qo’ni-qo’shnilarimiz tish-tirmoqlari bilan tirishib, ayrim hollarda yo’q yerdan bor qilishga barcha imkonlarini safarbar etganlari sharoitida biz turli bahona-yu sabablar bilan, yo o’rgangan ko’ngil o’rtansa qo’ymaganidek, oldingi markscha-lenincha qarashlar bag’rida qolaberdik... g’arbcha nazariyalarning etagini tutdik”. Agar shunday bo’lgan bo’lsa, nega bu yozg’irig’ egasi kimlar markscha-lenincha qarashlar yoki g’arb nazariyalarining etagini tutganligini ochiqslamadi?

Azamat Ziyoning Turon tarixi, milliy davlatchiligimiz tarixida Alp Er To’nganing tutgan o’rni, shuningdek, kishilik taraqqiyotidagi so’nggi 2000 yil ichida asosan turkiy omil ustunlik qilganligi haqidagi(Kushoniylardan to Usmonlilargacha) fikrlari ham yangilik emas. Bizning tarixchilarimiz qilishi lozim bo’lgan ishni boshqa turkiy xalqlar vakillari(olimlar) hal etishdi. Men bu o’rinda Murod Adjining “История тюрков”(M.2015) va Rustan Raxmanaliyevning “Империя тюрков. История великой цивилизации” kabi kitoblarning ahamiyatini alohida ta’kidlab o’tmoqchi edim(Albatta, ularning hamma fikrlarini ham to’g’ri deb bo’lmaydi).

O’zimizning qo’limizdan kelmagach, boshqalar biz uchun bajarsalar ham, ularni kamsitishga, asarlaridan xato topishga urinamiz. Axir futbolda bir oltin qoida bor-ku: “Sen urmasang, senga urishadi”. O’zimiz qilolmagandan so’ng, uyalmasdan “100 buyuk shaxs” rukni ostida tuzilgan turli ro’yxatlarda Amir Temur shaxsi haqida bir og’iz so’z yo’q”, deb gina ham qilib qo’yamiz.

Nega o’zimiz “Turonning 100 buyuk shaxsi” degan to’plam chiqarmadik yoki chiqarmayapmiz? Yoki 2016-yilgacha o’tgan 25 yil ichida shunday ish qilganimizda, birov qo’limizni chopib tashlarmidi? Yo’q, albatta. Men bu xatolarimizning tub sababi – mablag’ bo’lmaganida emas, “alloma”larimizning akademizm kasalligiga chalin-ganida deb hisoblayman. Buyuk bobomiz Imom al-Buxoriy hukmdor bilan kelisha olmay, Samarqandning Chelak qishlog’iga kelib ammasining kulbasida yo’qchilik sharoitida yashashga majbur

bo’lganida ham ijodni to’xtatmaganligi olimlarimizga o’rnak bo’lishi kerak emasmi?

Yoki kommunistlarning rahnamosi Karl Marks o’g’li Fransisko vafot etganida tobut sotib olish uchun puli bo’lmay, mayit 3 kun ko’milmay qolganida yoki kiyimlarini lombardga qo’yib, qishda hatto oyoq kiyimsiz tashqariga chiqolmay qolgan chog’ida ham o’z g’oyalari-dan voz kechmagan. O’sha lombard egasi Karl Marks kiyimlarining tagiga “Kapital egasining kapitali” (“Kapital” asari nazarda tutilmoqda) deb haqorat-muz iboralarni yozib qo’yanida ham Karl Marks bunga chidagan.

Karl Marksning qaynog’asi Prussiya qirolligining ichki ishlar vaziri bo’lgan, binobarin u shohona yashash imkoniyatiga ega edi. Buning uchun u Prussiya monarxiyasini ko’klarga ko’tarib maqtashi kerak edi, biroq u g’oyalari xato bo’lsa-da, unga sodiq qoldi. Hech kimdan o’pkalamadi. To’g’ri, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev I–II Uyg’onish davrlari omilini qayta tiriltirdi. Buning uchun u kishidan o’zbek xalqi chuqur minnatdor. Biroq shu o’rinda bir savol tug’iladi: Nega Azamat Ziyo 2000-yillarning boshidayoq bu masalani bor bo’yicha yoritmadi?

Axir, u 2000-yilda chop etilgan “O’zbek davlatchiligi tarixi” kitobida bunday deb yozgan edi-da: “Ma’lum bir davr ichida tushkunlikda bo’lib, so’ng bosh ko’tarib yuksaklikka erishilgan holat g’arb tillarida odatda renessans, bizda esa uyg’onish davri deyiladi.

Qizig’i shundaki, “Renessans deyilganida, aksariyat XV–XVI asrlardagi Yevropadagi yuksalishni anglaydi. Vaholanki, arablarning dastlabki vaqtdagi siyosatlar natijasida anchayin xaroblikka yuz tutgan mamlakatimiz va umuman Sharq mamlakatlari IX–X asrlarga kelib fan va madaniyatda yuksaklikka erishganlar, ya’ni jamiyat yana bir bor uyg’ongan. Bu uyg’onishning na-faqat bizning, balki batamom kishilik taraqqiyotidagi o’rni to’g’risida fikr qilinsa, u holda insoniyat tarixida birinchi uyg’onish davri mohiyat e’tibori bilan bizning mamlakatimiz va mintaqamizda ro’y berdi. Va bu yuksalish biz orqali butun bashariyatga tegishlidir”(102-103-betlar).

Bu o’rinda ikki jihatga e’tibor qaratamiz. Birinchisi – bu hodisa IX–X asrlarni emas, IX–XII asrlarni o’z ichiga oladi. Ikkinchisi, Azamat Ziyo kitobida yurtimizdagi Birinchi Uyg’onish davri-ni “Musulmon uyg’onish davri” deb nomlanishi tarixiy haqiqatga zid ekanligi haqida lom-mim demagan. Temuriylar davri madaniyati, ilm-fani 2-Uyg’onish davri ekanligi haqida mutlaqo yozmagan (Qarang. O’sha kitob, 197–208-betlar). **Nega?**

Endi maqola muallifining Shayboniylar va Ashtarxoniylar haqidagi fikrlari to’g’risida ikki og’iz so’z.

Azamat Ziyo yozadi: “Shayboniylar bilan birga kirib kelgan, ular-dan keyin davlatimizni boshqargan Ashtarxoniylar hukmronligi bosqichi-

da avj olgan ko’chmanchi siyosiy ta-fakkur pirovardida bizga o’ta qimmatga tushgan. Siyosiy hayotda urug’-aymoqchilikning kuchayishi (92 urug’!), oxir-oqibat kechagina butun olamni so’rab turgan buyuk davlat – Turonning uchga bo’linib ketishiga olib keldi”. Afsuski, bu iboralarda tarixiy haqiqatdan ko’ra, ko’proq hissiyot ustunlik qilgani yaqqol ko’zga tashlanib turibdi.

Nega? Birinchidan, so’z yuritilayotgan davrda Temuriylar saltanatidan faqat nom qolgan edi. U aslida bir nechta mayda qismlarga bo’linib ketgandi. Binobarin, saltanatning bu davrda butun olamni so’rab turgan davri tugab bo’lgan edi. Bu holatni Muhammad Shayboni-yxon ham yaxshi bilardi. Saltanatni bu ko’yga solganlar Shayboniyyon va shayboniylar emas, temuriylarning o’zi edi. Bora-bora saltanatda it egasiga boqmaydigan holat yuzaga keldi. Bu esa saltanatdagi og’ir ichki siyosiy vaziyat-ni yanada taranglashtirdi. Tabiiyki, har qanday jahongir ham bunday og’ir vaziyatdan o’z manfaati yo’lida foydalanadi. Shayboniyyon ham shunday qildi. Binobarin, Temuriylar saltanatining qulashiga aslida temuriylarning o’zlari sababchi bo’ldi, shayboniylar esa uni nihoyasiga yetkazdi, xolos. Xulosa shuki, Muhammad Shayboniyyon o’zbek davlatchiligining ildiziga bolta urmadi, aksincha, temuriyzodalar qila olmagan ishni qildi. Ya’ni Movarounnahr, Xuroson va Xorazmni yagona davlatga birlashtirdi. Eng muhimi, Turondagi eng ko’p sonli aholi guruhining o’zbek atamasi ostida to’planishini boshlab berdi. Shu xalq nomi bilan ataluvchi davlat garchand mustamlaka bo’lsa-da, 1925-yilda tashkil etildi(O’zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi). 1991-yilda esa mustaqillikka erishdi, 1992-yilning 2-martidan boshlab xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a’zosiga aylandi.

Mana 35 yildirki, bu davlat mustaqil rivojlanmoqda va jahon hamjamiyatida borgan sari o’zining mustahkam o’rnini egallamoqda. O’zbek degan millat dunyoda shaxdam qadam tashlamoqda. Bu o’rinda Ozarboyjon shoiri Akif Bag’ir-ni “O’zbek kelayotir” she’rini eslash o’rinlidir.

Azamat Ziyo maqolada Buxoro amirligida hokimiyatni qo’lga kiritish ishtiyoqida yongan Fayzulla Xo’jayevning sovet Rossiyasi rahbarlari bilan uchrashganligi, ular bilan amirni taxtdan ag’darish rejasini pishitib, Moskvada “Yosh buxoroliklar” qo’mitasini tuzganligi, uning faoliyatini tashkil etish uchun Rossiya hukumatidan 155000 rubl olganligi, 1920-yilning avgust oyida o’zi boshchiligidan oldindan Buxoro Xalq nozirlari sho’rosi(soveti) hukumatini tuzib qo’yanligi haqida yozgan. Albatta, bu o’ta achchiq haqiqat. Biroq Azamat Ziyo masalaga yana boshqa tomondan yondashib, “Fayzulla Xo’jayev shunday qilmaganida Buxoro amirligi qulatilmagan bo’larmidi?” deb ham mulohaza qilsa, yomon bo’lmasdi. Bu o’rinda amir Said Olimxon nega Buxoro jadidlari bilan har ikki tomonni qanoatlantiruvchi(kom-



bugungi kun uchun o'g'itdir

promiss) kelishuvga erishish chorasini ko'rmadi, degan savol ham tug'iladi-da.

Axir Fayzulla Xo'jayevni shunday yo'l tutishga amirning mamlakatda zarur islohotlarni o'tkazmaganligi, tinch namoyishga chiqqan Buxoro jadidlari ayovsiz ta'qib etganligi ham sabab bo'lmadi? Axir amirning hokimiyatni hech kim bilan bo'lishishni istamaganligi ham haqiqat-ku.

Agar Said Olimxon va Fayzulla Xo'jayev shaxsi taqqoslansa, Fayzulla Xo'jayev har jihatdan amirdan ustun edi. To'g'ri, amir Rossiyada, Fayzulla Xo'jayev esa ham Rossiya, ham Germaniyada(Olmoniya) tahsil olgan. Germaniya o'sha davrda iqtisodiy taraqqiyotda dunyoning ikkinchi, Yevropaning esa birinchi davlati edi. Jadidlarning tub maqsadi Turkistonni ilm-fan va marifat orqali ilg'or davlatlar darajasiga ko'tarish bo'lganligi inobatga olinsa, agar amirlikdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tartiblar saqlanib turadigan bo'lsa, bu maqsad amalga oshmas edi. Jadidchilik harakati ichida Buxoroning kelajagi haqida ikki xil qarash bor edi. Mahmudxo'ja Behbudiy tarafdorlari bo'lgan jadidlar amirlikda konstitutsiyaviy monarxiya, Fayzulla Xo'jayev va uning tarafdorlari esa respublika tuzumini o'rnatish tarafdori edi. Amirning hech bo'lmasa parlament(majlis) tashkil etish haqidagi va'dasini bajarmaganligi ham ayni haqiqat.

Shuhratparastlik masalasiga kelsak, bu xususiyat hamma tarixiy shaxslarga xos. Bunday xususiyatsiz hech kim tarixiy shaxsga aylana olmasligiga butun o'tgan va o'tayotgan tarix guvoh.

Fayzulla Xo'jayev ham bundan mustasno bo'lmagan. U Sovet Rossiyasining Sharq, xususan, musulmon Sharqi xalqlariga o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini berish to'g'risidagi va'dalariga ishongan. Biroq butun o'tgan keyingi yillar voqealari buning aksini ko'rsatganligidan afsus chekib, xatoga yo'l qo'yganligini tushunib, onasining tiz-zasiga boshini qo'yib, afsus-nadomatlar bilan "Onajon, bu xatolarim uchun meni kelgusi avlod kechirarmikan?" deb yig'laganiga ham tarix guvoh.

Fayzulla Xo'jayevning o'z davri uchun o'ta bilimdonligi, ishchanlik qobiliyati, nutq mahorati, Moskvaning ko'rsatmalarini so'zsiz emas, mulohazalar bilan, sharoitga moslab tatbiq etishga uringanligi kabi xususiyatlari Akmal Ikromov boshchiligidagi guruhda unga nisbatan hasad olovini yoqqanligiga ham tarix guvoh. Oxir-oqibat Akmal Ikromov va uning tarafdorlari Fayzulla Xo'jayevga qarshi fitna uyushtirgan va uni hokimiyatdan chetlatishga erishgan. Lekin bu bayram uzoqqa cho'zilmasdi. Akmal Ikromov ham otib tashlandi. Chunki barcha zamonlarda o'zini-kini sotgan odamlarga ishonch bildirilmagan.

Rahmatli Sharof Rashidovni ham sotganlar, tufillarining ost charmi yirtilgunicha Moskvaga, KGBga qatnaganlar uning kechagi safdoshlari edi. Gazetxonlarga bu haqida Inomjon Usmonxo'jayevning "Taqqir o'yinlari"

deb nomlangan xotira kitobini o'qib chiqishni tavsiya etaman.

To'g'ri, amir bolsheviklar hujumi arafasida, undan keyin ham chet eldan harbiy yordam olishga harakat qilib ko'rdi. Biroq natija chiqmadi. Sababi, I jahon urushidan keyin Yevropaning barcha g'olib davlatlari dunyoni qayta bo'lish bilan ovora edi. Shuning uchun amir 1-sentabr kuni poytaxtni tashlab chiqdi.

Bu amirlikning amalda qulashi edi. Bolsheviklar Rossiyasi Fayzulla Xo'jayevsiz ham amirni ag'dara olardi. Fayzulla Xo'jayev bo'lmasa, boshqasini topishardi. Mabodo, boshqa Fayzulla Xo'jayev chiqmaganida ham sovetlarning o'zlari ag'darishardi. Qolaversa, menimcha, Fayzulla Xo'jayevning amirlikka nisbatan munosabatiga baho berishda amir uning boshi uchun mukofot e'lon qilganligini ham hisobga olish zarur.

Amirlik ag'darilishi bilan bolsheviklar o'zbek davlatchiligi tomirini kesib tashladilar. 1991-yilning 31-avgustida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov davlat mustaqilligini e'lon qilish va 1-sentabrni Mustaqillik kuni deb belgilash bilan(1920-yil 1-sentabr amir poytaxtdan chiqib ketgan kun) 1920-yili kesilgan o'zbek davlatchiligi tarixi tomiriga qayta hayot baxsh etdi.

Ba'zan menda beixtiyor quyidagi savol tug'iladi: "Qo'qon muxtoriyati e'lon qilinganida birlasha olmagan turkistonliklar yagona Turkiston davlati tuzilishiga rozi bo'larmidilar?" Demochimanki, turkiylarning birlashishi haqidagi Mahmudxo'ja Behbudiyning chaqirig'iga qaramay, qozoq bovurlarimiz Alash O'rdani tuzgan edilar-da.

Boring ana, Vladimir Ulyanov RSFSR tarkibida Turkiston Respublikasi tuzish to'g'risidagi Turor Risqulovning taklifiga rozi bo'ldi ham deylik. Unda qaysi millat vakili respublika rahbari bo'lardi?

Turkistonliklar bu masalada kelisha olisharmidi? Azamat Ziyoning Mahmudxo'ja Behbudiy haqidagi quyidagi fikrlari katta so'roq ostidagi fikrlardir: **"Mahmudxo'ja Behbudiy kurashni boshqacha davom ettirish niyatida o'lkani tark etib Turkiyaga otlangan. Uning Turkiyaga borishi Turkistonni qizil mustamlakachilar zulmidan qutqarish harakatini xalqaro miqyosga olib chiqish imkonini tug'dirishi, xorijsi uning atrofida katta siyosiy va moliyaviy kuch yig'ilishi, oxir-oqibat, katta harbiy jabhaga aylanib ketishini bolsheviklar juda yaxshi bilganlar"**. Bu fikrlar o'sha davr real voqeligiga zid.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiyaga borib jonini saqlab qolishi mumkin edi, xolos. A.Ziyo ta'kidlagan umidlar esa baribir amalga oshmasdi. Sababi, I jahon urushi tufayli o'z muammolari-ga o'ralashib qolgan Turkiyada Mahmudxo'ja Behbudiyga kim ham katta moddiy yordam berardi, qaysi katta siyosiy kuch uni qo'llab-quvvatlardi? Yoki, aytaylik, u tirik qolganida Turkistonning taqdiri o'zgarib ketarmidi? Yo'q, albat-

ta, chunki sovet hokimiyati bunga yo'l qo'ymasdi. Kerak bo'lsa, josus yuborib o'ldirib yuborgan bo'lardi yoki Alixon-to'ra Sog'unuy kabi sovet josuslari uni asir olib Moskvaga olib ketgan bo'lardilar. Boring ana, Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiyada 2-3 yil ichida bolsheviklarga qarshi katta moliyaviy kuch to'pladi ham deylik. Turkiya Respublikasining yangi hukumati bu mablag'ning Turkistonga kiritilishiga yo'l qo'yarmidi? Yo'q, sababi Turkiya yangi hukumatining taqdiri ayni paytda sovet Rossiyasining unga beradigan yordamiga bog'liq bo'lib qolgan edi.

Bir so'z bilan aytganda, asr boshlarida Turkistonda jadidchilik milliy harakati uchun barcha imkoniyatlarning yo'li berkitilgan edi.

Buni Munavvarqori Abdurashidxonning quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi: "Sho'ro hukumatining mustahkamlanishi va yashab qolishiga to'la ishonch hosil bo'lgach, jamiyat(Turkistondagi "Milliy ittihad" jamiyati nazarda tutilmoqda. – U.J.) hayoti va uning kelajakda ish olib borish-bormasligi bizlarni qiziqtirmay qo'ydi. Bunga zarurat ham yo'q edi. Men bolshevoylar firqasiga kelishga qaror qildim. Jamiyat rayosati bunga qarshilik qilmadi, aksincha quyidagi mazmunda qaror qabul qildi: "Sho'ro hukumatining yashab qolishiga shubha barham topishi bilan hamda jamiyatning g'oyalarini hukumat bilan itifoqda amalga oshirish oson va maqsadga muvofiq ekanligi tufayli tugatilsin, uning a'zolari, Munavvarqori va boshqalarga boshlangan ishni davom ettirish uchun bolshevoylar firqasiga kirishga ruxsat etilsin".

Munavvarqori jamiyatning tarqatilishi sabablarini Turkiyaning birinchi jahon urushida yengilishi bilan Turkiyadagi "Ittihad va taraqqiy" firqasining hokimiyatdan ketishi, moddiy imkoniyatlarning yo'qligi kabi nuqtalarga bog'lagan(Qarang: Ahad Andijon. "Turkiston uchun kurash". 1-jild. T.2017. 96-97-bet).

Azamat Ziyoning SSSRdagi kolxoz tuzumi haqidagi mulohazalari ham xolislikdan yiroq. Chunki uning fikrlari kolxozda ishlab ko'rmagan bir odamning fikrlaridir. Aslida kolxoz tuzumi butunlay yaroqsiz qurilma emas edi. Negaki, yaxshimi-yomonmi kolxoz tufayli qishloq aholisi o'rtasida ishsizlik deyarli bo'lmagan.

Ikkinchidan, XX asrning 70-yillaridan boshlab kolxozchilarning yillik daromadlari ham ortib borgan. Yil oxirida kolxoz a'zolari 1000 rubldan 10000 rublgacha mukofot puli olishgani – fakt. Mening ota-onam ham kolxozchi bo'lgan. Ayniqsa, onam kolxozimizning faxrli kishilaridan biri edi. U kishi bir kunda 450–500 kg.gacha paxta tergan. Otam, onam tergan paxtani tarozi boshiga tashishga ulgura olmagan paytlari ham bo'lgan. Onam sovet davlatining "Mehnat Qizil Bayroq" ordeni, O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining Faxriy yorlig'i bilan mukofotlangan. O'zbek xalqining matonatli mehnati evaziga 6237000 tonnagacha paxta yetishtirildi.

Qancha-qancha fuqarolarimiz sovet davlatining oliy mukofoti – "Sotsialistik mehnat qahramoni" unvoni, juda ko'plari esa turli darajadagi orden va medallar bilan taqdirlanishdi. Ularning mehnat jasoratlari yosh avlodni ruhlantirib kelgani ham haqiqat. Chunki mehnatkashlar O'zbekiston SSRning tenglar ichida teng respublika ekanligiga, SSSR hammamizning davlatimiz ekanligiga, KPSS esa sovet xalqini baxtli kelajak sari yetaklashiga shubha qilmagan. Barcha OAV, Respublikaning oliy siyosiy rahbariyati, olim-u fuzalolari xalqni shunga ishonrtirgan. Amalda mustamlaka bo'lganimiz oddiy xalqning xayoliga ham kelmagan.

To'g'ri, kolxoz tuzumi qishloq xo'jaligida mukammal tuzilma emas edi. Sababi, paxta tayyorlashdagi og'ir rejalar, kolxoz mulkini 10–15 nafar amaldorning go'yo o'z mulkidek o'zlashtirishi, xo'jalikning barcha tarmoqlaridagi katta-katta qo'shib yozishlar oxir-oqibat bu tuzilmani obro'sizlantirdi.

Shuning uchun ham kolxozlar tarqatilib, o'rmda fermer xo'jaliklari tashkil etildi. Biroq bugungi fermer xo'jaliklarida ham ko'zbo'yamachilik hamon davom etmoqda. 2025-yili Prezidentning qishloq xo'jaligi xodimlari vakillari bilan uchrashuvdan avval "Sevimli" telekanalining "Yangi hayot" ko'rsatuvida Bo'ka tumanidagi fermer xo'jaliklaridan birining rahbariga so'z berildi.

U so'zida vijdoni hech ham qiy-nalmay 2025-yilda har gektar yerdan 50 sentnerdan paxta, 100 sentnerdan bug'doy topshirdim deb Xudoni ham, Prezidentni ham aldadi. 2026-yilda 100 s.dan paxta hosili olishga va'da berdi. Aslida Bo'ka tumanining qishloq xo'jaligi yerlaridan hech qachon 100 s paxta hosili olish mumkin emas. 2-3 kundan so'ng men o'sha fermer xo'jaligi rahbaridan nega yolg'on gapirding, deb so'radim. U: "Meni ko'rsatuvga chaqirganlar shunday deysan, biz Prezidentga shunday deb axborot berib qo'yganmiz, deyishdi va men yolg'on gapirishga majbur bo'ldim", deb javob qaytardi. Xo'sh, bu masxarabozlik kimga kerak?

Yana Azamat Ziyo senator sifatida bugun fermer xo'jaligida ishlayotgan oddiy ishchilarga ish haqi qanday berilayotganini ham bir o'rganib chiqsa yomon bo'lmas edi.

Real ahvol qanday? Fermer g'o'zaga ishlov beruvchi chopiqchilarga gektariga 300 kg.dan, suvchilarga 1,5–2 tonnadan bug'doy, qo'shimcha ravishda bug'doydan bo'shagan maydondan ma'lum miqdorda foydalanish uchun yer ajratmoqda. Albatta, bular ishchini qanoatlantirmaydi. Lekin ular shu shartga rozi bo'ladilar. Chunki, birinchidan, borib ishlaydigan boshqa ish joyi yo'q. Ikkinchidan esa, o'sha ishchining 1-2 ta qora molini arqonlash uchun yaylov kerak. Yaylov esa fermerlarda bor. Bugun jamoat yaylovi degan tushuncha yo'q bo'lib ketdi.

(Davomi 6-betda.)



TARIX – bugungi kun uchun o'g'itdir

(Davomi. Boshi 2-, 3-, 4-, 5-betlarda.)

Ijroiya hokimiyat ularni auksionga qo'yib sotib yubordi. Bu ham mayli, fermer xo'jaliklari aksariyat qismining moliyaviy ahvoli ancha no'noq. Bu ham yetmaganidek, klasterlar fermerlar sotgan mahsulotlar haqini vaqtida to'lab bermaydi. Boshqa tumanlarni bilmayman-u, lekin Bo'ka tumanida shu vaqtgacha birorta insofli klaster faoliyat yuritgani yo'q.

Azamat Ziyu maqolasida nega biz dastlab podsho Rossiyasi, keyin esa bolsheviklar Rossiyasi mustamlakasiga aylanib qolganimizning bosh sababi – milliy birlik va milliy g'urning yo'qligi ekanligini ochiq qilganida ayni muddao bo'lardi. Muallif bizning qora kunlarimiz uchun chor va sovet Rossiyasini ayblagan-u, lekin o'zimizning ayblarimiz to'g'risida deyarli hech narsa demagan. Bu endi tarixiy xolislik emasda.

Azamat Ziyu maqolasida 1929-yildan 1991-yilgacha ishlagan O'zbekiston Komfirqasining 9 nafar sarkotibi, jumladan 1989–1991-yillarda O'zkomfirqaning sarkotibi lavozimida ishlagan Islom Karimov ham Moskvaning ko'rsatmalariga so'zsiz itoat etganini aytgan. Biroq tarixiy haqiqat shundan iboratki, Islom Karimov Moskvaz ham qator ishlarni amalga oshirgan. Chunonchi, Islom Karimovning tashabbusi bilan Moskvadan so'rab o'tirilmay 1989-yil 17-avgustda qishloq aholisining tomorqasini kengaytirish va uy-joy qurish uchun yer uchastkasi ajratib berish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Qarorda 1989-1990-yillarda 1,5 mln oilaga 25 sotixdan (agar tomorqasi 15 sotix bo'lsa, daladan 10 sotix berildi) yer ajratildi. 700 ming oilaga yangi tomorqa yerlari berildi. Respublikadagi murakkab ijtimoiy masalaga ana shunday oqilona yechim topildi. Natijada ming-minglab oilalar uy-joyli, ishli bo'ldi. Bundan tashqari, paxta yetishtirish rejasi 700 ming tonnaga kamaytirildi. Bu voqea Islom Karimovning *“Faqat o'z kuchimizga tayanishimiz kerak, o'zimiz harakat qilmasak, chetdan kelib bizga birov yordam bermaydi”*, degan gaplarining amaliy tasdig'i bo'lgan edi.

Ayni paytda, Islom Karimov Moskvadan so'rab o'tirmay O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvini joriy etdi. Azamat Ziyoning “paxta ishi” kompaniyasining tub maqsadi haqida yozgan mulohazalarini men rad etaman. Nega? Chunki, birinchidan, “paxta ishi” bor hodisa edi.

Ikkinchidan, “paxta ishi” kompaniyasining boshlanishiga sabab, Azamat Ziyoning **sotsialistik tuzumning inqirozga uchrab borayotgani aybdorlarini izlash edi, degan iddaosi asossiz**. Yo'q, paxtani qo'shib yozish hodisasi bizda yerdan hech qachon intensiv foydalanishga o'tilmaganligining oqibati ham edi. Bizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ekstensiv usul Sh.Rashidov davrida hatto kuchaydi ham.

Bundan tashqari, aynan Sharof Rashidov o'sha davrdagi sovet davlati-

ning rahbari Nikita Xrushcheyovga yaxshi ko'rinish uchun KPSS syezdida unga qarata O'zbekiston paxtasi uchun to'layotgan xarid narxining baland ekanligini, shuning uchun uni kamaytirish, tejalgan mablag'ni boshqa maqsadlar uchun ishlatish zarurligini ta'kidlagani ham ayni haqiqat. Shunday qilindi ham. Oqibatda 2-3 yil ichida sovxoz va kolxozlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari pasayib ketdi, davlat oldidagi qarzlarsa ko'payib bordi. Keyinchalik xatosini tushungan Sharof Rashidov ko'p sa'y-harakatlar evaziga paxta xarid narxini atigi 3 tiyanga oshira oldi, xolos. Paxta terimi mavsumi yildan yilga cho'zilib bordi. Sababi – yerga to'kmay teradigan paxta teruvchi mashinalarni yarata olmaganimiz bo'ldi. O'sha davrda bu mashina bo'yicha O'zbekistonda 2 ta doktorlik, 98 ta nomzodlik dissertatsiyasi yoqlangan bo'lishiga qaramay ahvol o'zgarmasdan qolaverdi.

To'g'ri, qo'shib yozish bitta O'zbekistonga xos hodisa emasdi. Barcha respublikalarda bu kasofat bor edi. Unday bo'lsa, nega SSSR rahbari Yuriy Andropov davrida O'zbekiston nishonga olindi? Ma'lumki, qo'shib yozish, paxta qabul qilish maskanlarida atayin paxtani yoqib yuborish holatlari ko'payib borayotgani to'g'risida KGBga bir necha marta shikoyat yozilgan.

Yuriy Andropov shikoyatlar bo'yicha maxsus komissiya yubormoqchi bo'lganida, Sharof Rashidov Aleksey Kosiginga qo'ng'iroq qilib komissiya kelishini to'xtata olgan edi. Biroq keyin A.Kosigin va L.Brejnev vafot etdi. Endi hech kim Sharof Rashidovga tayanch bo'lolmasdi.

Ikkinchidan, Moskva juda yaxshi bilardiki, bir turtki bo'lsa, O'zbekiston rahbarlari bir-birini osongina sotardi. Bunday holat chor Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi chog'ida juda qo'l kelganligini Moskva yaxshi bilardi. Shuning uchun ham O'zbekiston nishonga olindi. Vaqt Moskva rejasining tezda o'z samarasini berganligiga guvoh. Ma'lumki, Sharof Rashidov 1983-yilda vafot etdi. Biroq 1984-yilning iyun oyida o'tkazilgan O'zbekiston KP MK XVI Plenumida Inomjon Usmonxo'jayev bunday degan edi: *“Sizlar mendan nega Rashidovning kamchiliklarini vaqtida yuziga aytmagansiz, deb so'ramoqdasiz. Biz kamchiliklarini, xatolarini aytmog'chi bo'lardik, lekin ayta olmasdik, chunki Rashidov bizlarni sehlrab qo'yardi”...*

Aynan, mana shunday shogirdlarning qo'rqqoligi tufayli 1986-yili Sharof Rashidovning suyaklari kovlab olinib 1983-yilda ko'milgan joyidan boshqa joyga ko'mildi. Bunday pastkash, jirkanch, iflos ishni o'zbeklardan boshqa hech bir millat qilgani yo'q. Buni Moskva qildi, deyishingiz mumkin, yo'q, millat xoinlari shunday qilishga Moskvani ko'ndirgani uchun bu voqea sodir bo'ldi. Azamat Ziyu bu haqida ham yozsa yomon bo'lmasdi. Bugun “Paxta ishi” bo'yicha javobgarlikka tortilganlarni **“qatag'on qurbonlari”**, deb ulug'lash bu haqiqiy mehnatkash pax-

takorlar ustidan kulish bilan barobar. Ularni qatag'on qurbonlari sifatida XX asrning 30-yillaridagi qatag'on qurbonlariga tenglash ularning xotirasini oyoqosti qilishdir. **Nega?** Negaki, Qatag'on (repressiya), erkin fikrlovchi, mavjud tuzumga siyosiy va mafkuraviy jihatdan muxolifatda bo'lganlarni mahv etishdir. Xo'sh, aytinch, “paxta ishi” bo'yicha javobgarlikka tortilganlarning birortasi mavjud tuzumga siyosiy, mafkuraviy jihatdan muxolifatda edimi? Aslo, yo'q. Aksincha, ular mavjud tuzumning nuqsonlaridan o'z manfaatlarini uchun foydalangan shaxslar edi. Endi ular jabrdiyda yoki salkam milliy qahramon darajasiga chiqarib qo'yilmoqda.

Milliy g'urur masalasida biz qozoq bovlurimizga tan bersak arziydi. Nega? Sababi – Mixail Gorbachyov Dinmuhammad Qo'naeyevni lavozimidan olib, o'miga Ulyanovsk viloyati partiya komiteti 1-kotibi, rus Gennadiy Kolbinni Qozog'iston KP MK Birinchi sekretari (Respublikadagi 1-shaxs) lavozimiga tayinlaganda qozoq bovlurimizning milliy g'ururi junbushga keldi va ular Olmaota shahrida qo'zg'olon ko'targan edilar. Bizlardan birortamiz, hech bo'lmaganda Musulmonlar idorasi Sharof Rashidovning jasadini go'rdan olib, go'rga solish chog'ida e'tiroz bildirdimi?..

Azamat Ziyoning ta'lim sohasidagi fikrlari ham xolis emas. Sovet ta'lim tizimi yomon bo'lgan bo'lsa, sovet hukumati 1920-yili ochgan bugungi Milliy universitet (Turkiston, O'rta Osiyo, ToshDU) yaroqsiz bo'lgan bo'lsa, ilmfan, madaniyatimiz darg'alari, davlat arboblarmiz qayerdan yetishib chiqdi? (Toshmuhammad Qori Niyoziy, Toshmuhammad Sarimsoqov, Sa'di Sirojiddinov, Yolqin To'raqulov, Rajab Islombekov, Ibrohim Mo'minov, Habib Abdullayev, Vosit Vohidov, Abdurahim Obidov, Ahmadali Asqarov, ijodkorlarimizdan Oybek, G'afur G'ulom, Odil Yoqubov, Zulfiya, Abror Hidoyatov, Sora Eshonto'rayeva, Lutfiniso Sarimsoqova, Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Galiya Izmailova, Mukarrama Turg'unboyeva, Munajat Yo'ldiyeva, Botir Zokirov, Shukur Burhonov, Nabi Rahimov, Tamaraxonim, Razzoq Hamroyev, Olim Xo'jayev, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, davlat arboblardan Usmon Yusupov, Nuriddin Muhiddinov, Sharof Rashidov, Yodgora Nasriddinova, Islom Karimov va boshqalar). Yo ular chet eldan kelishganmidi, yoki osmondan tushishganmidi?

Xulosa shuki, xolis bo'laylik, medalning ikkinchi tomoni ham borligini unutmazdan, bu dunyodan o'tgan arboblarmizning orqasidan tosh otmasdan, qabrlarida tinch yotishlariga imkon beraylik. Mana endi hozir nima deyishyapti: Fayzulla Xo'jayev yomon, Akmal Ikromov yomon, Yo'ldosh Oxunboboyev savodsiz, Sharof Rashidovni esa vaqtida poraxo'rlikda aybladik va jasadini ko'chirdik, Islom Karimov esa diktator, taraqqiyotga to'siq bo'lgan arbob va h.k.

Tanamizda bunday qilishga undovchi, hech qachon o'lmaydigan virus bor. Bu virusni shartli ravishda **“tosh otish virusi”** deb atasak bo'ladi. Bu virus 100⁰ issiqda ham va 100⁰ sovuqda ham o'lmaydi. Demak, bu virus abadiy. Ammo bu degani mazkur virusga qarshi kurashmaslik kerak degani emas. Buning eng yaxshi davosi davlat arkonlarini maqtashni to'xtatishdir.

Islom Karimov atrofida girdikapalak bo'lganlar, u kishiga qarata: “Islom Abdug'aniyevich, Siz bizning dohiyimizsiz”, deyishgacha bordilar. Maqtashdan to'xtamadilar. Oqibatda Islom Karimovdek ulug' inson ham o'z faoliyatida xato va kamchiliklarni ko'rmaslik holatiga tushib qoldi. Xalqimizda “Yerni suv, odamni esa maqto'v buzadi”, degan purma'no hikmat bor. Afsuski, bu purma'no hikmat unutildi.

Xushomadgo'ylarning qiliqlari menga Shimoliy Afrikadagi Fotimiylar davlatida (909–1171), xususan Misrda hukmdor Muiz davrida (953–975) bo'lgan bir hodisani – dahshatli zilzila yuz berganda sodir bo'lgan voqeani eslatib yubordi. Zilziladan so'ng Muiz arkoni davlatni to'plab ulardan yuz bergan hodisaning sababini so'ragan. Ulamolar yetakchisi: bu hodisa “Gunoh ishlarimiz ko'payib ketgani uchun Ollohning bizga yuborgan jazosidir”, deyishga jur'at etgan. Shunda xushomadgo'y, maddoh saroy shoiri turib, “Olampanoh, unday emas, aksincha, Sizning adolatli siyosatiningizdan hayratga tushgan yer o'zining yerligini bir muddatga unutib qo'yib raqsga tushib ketgani uchun yer qimir-ladi”, deb hodisaga izoh berganiga tarix guvoh.

Bugungi kunda Islom Karimov davrida maddohlik qilganlar, afsuski, unga tosh otmoqdalar.

Xulosa shuki, biz yerning o'z yerligini unutib qo'yishini kutib o'tirmasdan xato va kamchiliklarimizni aytishga o'zimizda iroda topa olishimiz lozim.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ziyoli ahlini xushomadgo'ylik illatidan uzoq bo'lishga da'vat etib kelayotgan bo'lsa-da, bu illat hamon davom etmoqda. Aslida biz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini o'zimizga dasturilamal qilib olishimiz zarur: *“O'tmishdagi yutuq va g'alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag'lubiyatlardan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o'zining taraqqiyot yo'li va kelajagini to'g'ri belgilay oladi”*.

Azamat Ziyoning o'z maqolasida ko'targan muammolarni ancha oldin ko'tarish yoki ko'tarmay turib ham hal etish imkoniyati bor edi. Lekin u deyarli 20 yillik faoliyatini Oliy Majlisda o'tkazib yubordi, menimcha u manbashunos tarixchi sifatida shu o'tgan 20 yil ichida tariximizga tegishli ko'pdan ko'p muammolarga yechim topgan bo'lardi...

Usmon JO'RAYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
xalq ta'limi xodimi,
“Sog'lom avlod uchun” va
“El-yurt hurmati” ordenlari
nishondori,
Turon FA akademigi,
Bo'ka tumanidagi
8-maktab o'qituvchisi

Tarixchilarga murojaat

“Chingiz to‘rasini g‘arib rioyat qilurlar edi...”



Maktabda o‘qigan paytimiz (o‘tgan asr 80-yillari) tarix darsliklarida eng salbiy qahramonlardan biri Chingizxon edi. Bolaligimizdan tasavvurimizga uning qonxo‘r, bosqinchi, shafqatsiz qiyofasi singdirilgan. “Tulkiday ayyor, ilonday zaharli, deyishardi Chingizxon haqida” – qaysidir bir darslikda Chingizxon surati shunday tagso‘z bilan berilgan edi.

Yaqin o‘tmish, aniqrog‘i sovet davri tarixchi, adabiyotshunos olimlarimiz ham Chingizxon haqida, Shayboniyxon haqida, mo‘g‘ullar haqida, ko‘chmanchi xalqlar haqida faqat salbiy fikrlar bildirgan. Ularga dushmandek qaragan. Bu an‘ana hozir ham davom etmoqda. Masalan, filologiya fanlari doktori Hasan Qudratullayev “Bobur armoni” kitobida Bobur mirzoni zo‘r berib mo‘g‘ullardan, demak Chingizxondan yiroq tutishga uringan:

“Boburnoma”da muallif mo‘g‘ulcha tartib-qoida, davlatchilik haqida ko‘p o‘rinlarda fikr yuritgan. Biroq biror joyda bu xususiyatlarning na urug‘-aymoq, na nasab jihatidan o‘ziga mansubligini aytmaydi. Aksincha, ularni **mutlaqo begona** (ta‘kid bizniki – **H.Q.**) xalq va elatga oid tartib-qoidalardek bayon etadi. Bunday o‘rinlarda, odatda, “mo‘g‘ul dasturi bila...”, “mo‘g‘ul cherikim...”, “mo‘g‘ul odati bila...” singari iboralarni qo‘llaydi. Ya‘ni matnda “mo‘g‘ul” so‘zi uchinchi shaxs sifatida keladi. Muallif mo‘g‘ul urf-odati, tartibi haqida yozganda, uning bayon uslubi Hindiston, Afg‘oniston yoki Jalolobod-dagi(Movarounnahr qavmlaridan uzoq) xalqlar hayotiga oid tasvir uslubidan farq qilmaydi. “Tonglasi kichik xon dodam(ya‘ni mo‘g‘ul avlodidagi bobosi – **H.Q.**) manga *mo‘g‘ulcha rasmlig*(ta‘kid bizniki – **H.Q.**) bosh-oyoq va qo‘rini va egarlik xossa otini inoyat qildi. Maftunluq mo‘g‘uliy bo‘rk va sonchma tikkan xitoyi atlas to‘n va xitoyi qo‘r, burung‘i rasmlig toshi chintoiy bila chintoiyni so‘l sari, yana uch-to‘rt nima xotun kishining yoqosig‘a osar anbardon va xaritasidek nimalar osibturlar, so‘ng sarida ham ushmundoq uch-to‘rt narsa osibturlar”.

Matnga e‘tibor bersak, mo‘g‘ul urf-odati, kiyim-kechagi va uning xillarini Bobur o‘ziga mutlaqo begona narsalar kabi tasvirlaganini payqaymiz. Ularning ayrimlarini cheriklar bo‘yniga osadigan xaritalarga o‘xshatishi shundan dalolat beradi. Shu misol ham Boburning temuriyodalarga mansubligini, mo‘g‘ul qavmiga uzoq qarindoshligi shartli ekanini bildirib turibdi” (H.Qudratullayev, “Bobur armoni” T., Sharq, 2005. 81-bet).

“Qayd etganimizdek, ona tomonidan Chingizxon avlodiga mansubligini o‘zi e‘tirof qilsa ham, na qavm, na fe‘l-atvor va na udum jihatidan, na sarkardalik va lashkarkashlik bobida uning mo‘g‘ul-larga daxli yo‘qligiga, ular Bobur tabiatiga mos kelmasligiga “Boburnoma”da ishoralar ko‘p. Aslida validasi Qutluq

Nigorxonimning nasli turkistonlik qipchoq bekleriga mansubligini ta‘kidlagan Bobur yana bir karra mo‘g‘ul qavmi unga begonaligini, o‘zi butun vujudi bilan temuriyodalarga mansubligini bildirgan: “Yunusxonning onasi turkistonlik qipchoq bekleridan Temurbek rioyat qilg‘on Shayx Nuriddin-bekning qizi yo nabirasi bo‘lur”.

Xullas, Zahiriddin Bobur shaxsiyati va nasl-nasabini mo‘g‘ullar qavmiga nisbat berish ham ma‘naviy va ham ijtimoiy-siyosiy jihatdan asossizdir. U umri bo‘yi Amir Temur saltanatini tiklash yo‘lida kurashdi, temuriyoda sifatida o‘z qavmi shuhratini himoya etib, o‘ziga sharaflay haykal qo‘ydi, qisqa, ammo barakali umrni yashab o‘tdi” (o‘sha asar, 83-bet).

O‘tmishda o‘tgan, o‘z davridagi podshohlar, sultonlar, amirlarning bir nechasiga batafsil ta‘rif berilgan(Husayn Boyqaro, Umarshayx mirzo va h.k.), bir qanchasi bir necha o‘rinlarda eslangan(Amir Temur, Yunusxon va h.k.) “Boburnoma”da Chingizxon haqida qaydlar bormi?

Albatta, bor. Bobur hazratlari ona tomondan ulug‘ bobosini eslamasligi mumkin emas edi. Lekin Chingizxon nomi 6 o‘rinda 9 marta tilga olingan bo‘lsa-da, ularda muallifning boshqa hukmdorlarga bo‘lgani kabi yo ijobiy (Mirzo Ulug‘bek, Sulton Ahmad mirzo va h.k.), yo salbiy(Shayboniyxon, Sulton Mahmud mirzo va h.k.) munosabati sezilmaydi:

“Necha navbat qoyinotasi Yunusxon-nikim, Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxon naslidindur, Chig‘atoyxonning yurtida mo‘g‘ul ulusining xoni ul fursatta ul erdikim, mening ulug‘otam bo‘lg‘ay, istid‘o qilib kelturdi” (“Boburnoma”, T., Sharq, 2002, 36-bet).

“Yunusxon Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxon naslidindur. Yunusxon ibn Vaysxon ibn Sherah o‘g‘lon ibn Muhammadxon ibn Xizr Xojaxon, ibn Tug‘luq Temurxon ibn Esan Bo‘g‘axon ibn Duvaxon ibn Baroqxon ibn Yesun Tuva ibn Mo‘tugon ibn Chig‘atoyxon ibn Chingizxon” (38-bet).

“Bir necha yildin so‘ng Adik Sultong‘akim, Chingizxonning ulug‘ o‘g‘li Jo‘ji nasli qazoq sultonlaridindur, berdilar” (40-bet).

“Mo‘g‘ul orasida Chingizxonning tuzuki holog‘acha Chingizxon yasab qo‘ygandek-o‘qtur” (89-bet).

“Burunlar bizning ota-og‘a Chingiz to‘rasini g‘arib rioyat qilurlar edi, majlisda va devonda va to‘y va oshda, o‘turmoqda va qo‘pmoqda xilofi to‘ra ish qilmaslar edi. Chingizxonning to‘ra-

si nassi qoti’ emasturkim, albatta kishi aning bila amal qilg‘ay. Har kimdin yaxshi qoida qolg‘on bo‘lsa aning bila amal qilmoq kerak, agar ota yomon ish qilg‘on bo‘lsa, yaxshi ish bila badal qilmoq kerak” (143-bet).

“Yana Qarshi viloyatidurkim, Nasaf va Naxshab ham derlar, Qarshi mo‘g‘ulcha ottur, go‘rxonani mo‘g‘ul tili bila “qarshi” derlar. G‘olibo, bu ot Chingizxon tasallutidin so‘ng bo‘lg‘ondur” (61-bet).

Aslida Boburgacha va undan keyin ham ota-bobolarimiz Chingizxonni o‘zlariga yot va dushman deb bilmagan. Uni “Sohibqironi a‘zam Chingizxonni muazzam” deb ulug‘lagan ulug‘ temuriy podshohlardan biri Mirzo Ulug‘bek, masalan, “To‘rt ulus tarixi”da “Turk avlodi hukmdorlarining boshlig‘i buyuk podshoh Temuchin qondir” deb sharaflagan(Mirzo Ulug‘bek, “To‘rt ulus tarixi”. T., “Cho‘lpon”, 1994, 106-bet).

Bobur mirzoning o‘zi ham, Gulbadanbegim “Humoyunnoma”da yozishicha, Hindiston fath etilgach, “...tevarak-atrof va viloyatlarga farmonlar jo‘natildiki, “Bizning xizmatimizga keling, to‘la rioyat qilgaymiz. Alalxusus, kimki ota-bobo va ajdodlarimizga xizmat qilgan, kelingiz, inoyat qilgaymiz. Sohobqiron yoki Chingizxon shaxsi naslidan bo‘lgan kimki dargohimizga mutavajjih bo‘lsin. Haq subhano Hinduston mamlakatini bizga ato qildi, kelingiz, tokim birga davlatni baham ko‘raylik”(Gulbadanbegim. “Humoyunnoma”. T., “Fan”, 2022, 19-bet) deya ikki ulug‘ bobosi – Amir Temur va Chingizxon avlodlarini yoniga chorlagan.

Jadid yetakchilaridan biri Hoji Muin “Sho‘ro” jurnalining 1913-yil 1-sonida chiqqan “Turkistonning o‘giti va o‘tinchi” maqolasida Turkistonni inson sifatida so‘zlatib shunday yozgan: “Tarix biluvchi odamlarga ma‘lumdirki, man burungi zamonda ilm va madaniyat o‘chog‘i bo‘lganim uchun, dunyoning eng ma‘mur va mas‘ud o‘lkasi edim. Uning uchun ediki, quyinimdagi(hozirda bir parcha xaroba binolardan iborat bo‘lgan) Samarqand, Samarqandi firdavs moninda atalardi. Chin o‘g‘lonlarimdan bo‘lgan, u bahodir u jahongir Temur va Chingizlar davrida ko‘rganim umron va baxtiyorlik qiyomatga qadar manim esimdan chiqmaydi”.

Bu esa shoir G‘ulom Zafariyning “Ishchilarga xitob” she‘ridan:

Tarixa boqing kim edik bizlar?

Chingiz, Chig‘atoy, Temur bobolar – Bizlarga salaf edi u erlar:

Shu erlar avlodimiz, ishchilar:

(G‘ulom Zafariy, Asarlar. “Info Kapital Grup” nashriyoti, 2018, 39-bet)

O‘zFA Tarix instituti direktori, akademik Azamat Ziyo esa Chingizxon avlodi bo‘lgan shayboniylarga dahshatli ayb taqagan:

“...Shayboniylar bilan birga kirib kelgan, ulardan keyin davlatimizni boshqargan ashtarxoniyalar hukmronligi bosqichida avj olgan ko‘chmanchi siyosiy tafakkur pirovardida o‘ta qimmatga tushgan. Siyosiy hayotda urug‘-aymoqchilikning kuchayishi (92 urug‘!), oxir-oqibat (18-yuzyillik boshida), kechagina butun olamni so‘rab turgan buyuk davlat – Turonning uchga bo‘linib ketishiga olib keldi. Shu tariqa, aslida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zagi bir, ammo bir-biri bilan raqobatchi uch siyosiy birlik – Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari paydo bo‘ldilar. Yuz ellik yillar kechgan ushbu siyosiy boshboshdoqlik jarayoni qanday yakun topgani ham yaxshi ma‘lum: 19-yuzyillikning ikkinchi yarmida o‘lkamiz Rossiya imperiyasi uzoq vaqtdan beri to‘qib kelayotgan to‘rga tushdi”(Azamat Ziyo. “Turon sivilizatsiyasidan Yangi O‘zbekistongacha”. “Adabiyot gazetası”, 2025-yil 13-son).

Endi hurmatli akademigimiz Azamat Ziyoga va umuman tarixchi olimlarimizga savollar:

1. XX asr boshlarigacha, jumladan, jadid davri adabiyotida hamda undan avvalgi temuriylar va boburiylar davriga oid manbalarda Chingizxon ijobiy tarixiy shaxs sifatida tilga olingan yoki uning shaxsiga kamida neytral munosabatda bo‘lingan. Qachondan va qanday mafkuraviy, siyosiy yoki tarixshunoslik paradigmasi ta‘sirida Chingizxon shaxsi o‘zbek tarixiy ongida “begona” va “dushman” obraziga aylantirildi? Bu o‘zgarish sovet tarixshunosligi mahsulimi yoki undan oldingi mustamlakachilik davri ilmiy mafkurasiga borib taqaladimi?

2. Muhammad Shayboniyxon va shayboniylar davlatchiligi faoliyatini “ko‘chmanchi siyosiy tafakkur” bilan izohlash qanchalik asosli? “Ko‘chmanchi siyosiy tafakkur” tushunchasining o‘zi aniq ilmiy ta‘rifga egami? Turon hududining uch siyosiy birlikka (Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo‘qon xonligi) bo‘linib ketishini faqat shayboniylar davridan meros qolgan siyosiy tafakkur bilan izohlash biryoqlamalilik emasmi? Bu jarayonda tashqi bosimlar(Eron, Qozoq ulusi, Jung‘or bosqinlari, Rossiya ekspansiyasi) va ichki iqtisodiy omillar qanchalik hisobga olingan? Shuningdek, XVI–XIX asrlarda butun Sharqning qoloqlik girdobida qolganligi omili hisobga olinmoqdami?

3. Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Shayboniyxon o‘z davrida siyosiy raqib bo‘lgan tarixiy shaxslardir. Nima sababdan milliy tarixiy narrativda Bobur ko‘proq ijobiy, Shayboniyxon esa ko‘proq salbiy talqin qilinadi? Shayboniyxonning Dashti Qipchoq va Movarounnahrni birlashtirishi, markazlashgan davlatni tiklashi, temuriylar davrida boshlangan parchalanishga barham berishi kabi omillar milliy davlatchilik tarixida xolis baholanyaptimi? Tarixiy shaxslarni zamonaviy siyosiy-me‘yoriy mezonlar bilan baholash qanchalik to‘g‘ri?

4. Bugungi o‘zbek tarixshunosligi temuriy, chingiziylar va shayboniy merosni bir butun turkiy-musulmon davlatchilik an‘anasi sifatida ko‘rishga tayyormi? Yoki biz hana sovet davrida shakllangan “o‘troq – ijobiy / ko‘chmanchi – salbiy” kabi sun‘iy qarama-qarshilik paradigmasidan chiqqa olmayapmizmi?

Husan KARVONLI



(Davomi. Boshi 8–9-betlarda.)

O‘zbekiston davlatchiligida Abdullohxonning roli va O‘zbekiston tarixida ko‘chmanchi o‘zbeklarning ahamiyatini ko‘rsatishga qaratilgan yorqin urinishni Bo‘riboy Ahmedov amalga oshirdi. 1965-yili Moskvada nufuzli “Hayka” nashriyotida B.Ahmedovning “Ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati” nomli kitobi chop etildi. Unda ko‘chmanchi o‘zbeklar Muhammad Shayboniyxon bilan kelib, tez orada Movarounnahrning turkiy aholisiga singib ketgani va ularga faqat o‘z nomini bergani ta’kidlanadi. Shayboniylarning Markaziy Osiyo siyosatiga qo‘shgan hissasi kam baholanganiga qaramay, B.Ahmedov P.Ivanov va A.Semyonovning Abdullohxon davlati faqat ko‘chmanchilarni birlashtirgan vaqtinchalik tuzilma bo‘lganligi

NEGA FAQAT AMIR TEMUR?

haqidagi qarashlariga qarshi chiqdi. B.Ahmedov fikricha, Abdullohxon davlati markazlashmagan bo‘lsa-da, patriarxal-feodal tipdagi davlat bo‘lgan. B.Ahmedov ko‘chmanchi o‘zbeklarning hunarmandchilik rivojlangan shaharlari mavjudligi va yerga feodal egalik shakllari mavjud bo‘lganini qayd etadi. Olimning xulosasiga ko‘ra, ko‘chmanchi o‘zbeklar XVI–XIX asrlarda Markaziy Osiyo siyosiy hayotida muhim rol o‘ynagan. B.Ahmedovning barcha sa’y-harakatlariga qaramasdan, ko‘chmanchi o‘zbeklarga va Shayboniylar sulolasiga munosabat na o‘zbek-sovet madaniyatida, na tarixshunoslikda o‘zgardi.

XX asrning 50–60-yillari sovet O‘zbekistonida Hindistondagi Boburiylar imperiyasining asoschisi sifatida Bobur shaxsini ulug‘lash kuchaydi. Ta’kidlash lozimki, bu jarayonda Muhammad Shayboniyxon mashhurlikda temuriy raqibi Boburga yutqazib qo‘ydi. 1958-yili Toshkentda “Boburnoma” nashr etildi. Bu Bobur shaxsining siyosiy nufuzini yanada mustahkamladi. Mashhur tadqiqotchi S.Azimjonova boburshunoslik yo‘nalishiga asos soldi, adabiyotshunoslar Bobur ijodiga bag‘ishlab o‘nlab dissertatsiya yoqladilar. Bobur milliy qahramon darajasiga ko‘tarildi va “bosqinchi” sifatida talqin etilgan Shayboniyxonga qarama-qarshi qo‘yildi. Sovet O‘zbekistonida Boburga bag‘ishlangan romanlar yozildi, teatr sahnalarida pyesalar qo‘yildi. Masalan, Pirimqul Qodirovning Bobur haqidagi “Yulduzli tunlar” romani (1978) bugungi kunda ko‘plab tillarga tarjima qilingan. Bu an‘ana, ya‘ni, Boburni ulug‘lash va uning raqiblarini kamsitish hozir O‘zbekistonda bugun ham davom etmoqda.

Bobur shaxsini ulug‘lash jarayoni kuchli bo‘lganiga qaramay, Moskva va Toshkentda shayboniy hukmdorlarga bag‘ishlangan asarlar ham nashr etilgan. Jumladan, 1961-yili Toshkentda o‘zbek tilida Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asari chop etildi. 1967-yili “Tavorixi guzida – Nusratnoma”ning faksimel nashri e‘lon qilindi. 1976-yili Fazlulloh ibn Ro‘zbehon Isfahoniy qalamiga mansub Buxoro haqidagi “Mehmonnomayi Buxoro” asari nashr qilindi. 1983-yili esa M.Salohiddinova Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriyning “Sharafnomayi shohiy” asarini e‘lon qildi. M.Salohiddinovaning ushbu ishi tarix fanida muhim hodisa bo‘ldi. XVI asr tarixi va madaniyatiga oid ko‘plab nashrlarga qaramasdan, Shayboniylar O‘zbekiston tarixshunosligida munosib o‘rin egallay olmadi.

O‘ZBEKISTONDA AMIR TEMUR SHAXSINING MUTLAQ ULUG‘LANISHI

1969-yil aprel oyida akademik Ibrohim Mo‘minov tashabbusi bilan Toshkentda Mirzo Ulug‘bek tavalludining 575 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy konferensiya o‘tkazildi. 1969-yil sentabrida I.Mo‘minov Samarqandda Temuriylar davri san‘atiga bag‘ishlangan UNESCO xalqaro simpoziumini tashkil etish tashabbuskori bo‘ldi. 1969-yilda, shuningdek, Samarqand shahrining 2500 yilligi nishonlandi. Bir yil avval akademik I.Mo‘minov “Yozma manbalar ma’lumotlari asosida Markaziy Osiyo tarixida Amir Temurning o‘rni va roli” nomli risolasini nashr ettirgan edi. Ushbu risola Temurning to‘liq “reabilitatsiyasi” va uni siyosiy yetakchi hamda sarkarda sifatida ulug‘lash ramzi bo‘ldi. Ibrohim Mo‘minov bu borada A.Yakubovskiyning quyidagi fikrini takrorlaydi: “Temur Oltin O‘rda bilan Markaziy Osiyo manfaatlarini yo‘lida va Moskva knyazligi bilan aloqasiz kurash olib bordi, u Moskva knyazligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmagan bo‘lsa-da, obyektiv jihatdan Oltin O‘rdaning zaiflashuviga emas, balki Rusning birlashuviga katta xizmat qildi”. Aka-

demik I.Mo‘minovning fikricha, Temur “Movarounnahrda yagona va mustaqil davlatni barpo etdi”.

Ibrohim Mo‘minovning risolasi muhim siyosiy oqibatlariga ega bo‘ldi: u millatchilikda ayblandi, Shayboniylarning rolini e‘tiborsiz qoldirish va O‘zbekistonning siyosiy hamda ilmiy hayotida Temuriylarni ulug‘lashga xizmat qildi. Ayrim olimlarning fikriga ko‘ra, aynan I.Mo‘minov shaxsiga nisbatan qo‘llangan keskin choralar mahalliy elitaga Moskva bilan munosabatlarda muayyan darajada avtonomiyaga erishish imkonini bergan. Ushbu risolaning nashri bilan bir vaqtda Qozog‘istonda “XV–XVIII asrlardagi qozoq xonliklari tarixi bo‘yicha materiallar(fors va turkiy manbalardan parchalar)” nomli to‘plam chop etildi. Mazkur nashr Shayboniylar va Ashtarxoniylar tarixiga oid ko‘plab manbalarni o‘z ichiga olgan edi. Asosli

ravishda taxmin qilish mumkinki, Shayboniylar davriga oid hujjatlarni nashr etish O‘rta Osiyo mintaqasida O‘zbekiston SSR va Qozog‘iston SSR o‘rtasida muayyan darajadagi raqobat bilan bog‘liq bo‘lgan.

1972-yili Toshkentdagi Sharqshunoslik institutida A.O‘rinboyev tomonidan Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari nashr etildi. Ushbu nashr O‘zbekiston tarixida Amir Temurning roli haqidagi ilmiy muhitda bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Oxir-oqibat, Temur Markaziy Osiyoda markazlashgan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va imperiya asoschisi degan qarash ustun keldi. Aynan Amir Temurni ulug‘lash Shayboniylarni e‘tiborsiz qoldirish orqali amalga oshirildi.

XULOSA

O‘zbekistonda Shayboniylarga bo‘lgan ommaviy qiziqishning so‘nggi yirik to‘lqini XX asrning 80-yillari oxiri – 90-yillari boshlariga to‘g‘ri keladi. 1989-yili E.Shodiyev Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarini o‘zbek tilida nashr ettirdi. Qisqa muddatga Shayboniylar tarixi(ayniqsa Muhammad Shayboniyxon shaxsi) mustaqillik va milliy uyg‘onish g‘oyalaridan ilhomlangan o‘zbek ziyolilari e‘tibor markaziga tushdi.

1992-yili E.Davidovich Shayboniylar numizmatikasiga bag‘ishlangan yirik tadqiqotini e‘lon qildi. Shayboniylarga bo‘lgan qiziqish kuchayganiga qaramay, o‘zbek ziyolilari orasida, akademik tarix fanida va O‘zbekiston siyosiy hayotida boshqa jarayonlar ustun bo‘lib qoldi. 1993-yildan boshlab Amir Temur davlat darajasida o‘zbek tarixining bosh qahramoniga aylandi. “Markazlashgan davlat” konsepsiyasi yana qayta jonlandi. XX asr 80-yillari oxirida o‘zbek tarixchilari Qoraxoniylar davlati(X–XII asrlar)ni o‘zbek xalqining qadimgi ajdodlari va O‘zbekiston tarixidagi ilk markazlashgan davlat sifatida e‘lon qildilar. Markazlashgan davlatning asoschilari sifatida qarluqlar ko‘rsatildi. O‘zbeklar tarixini bir necha bosqichga ajratdilar:

X–XII asrlar – o‘zbek etnogenezining yakuniy shakllanish davri;

XIV–XV asrlar – eski o‘zbek adabiy tilining(Navoiy va Bobur tili) qaror topishi davri bo‘lib, bu til “ijodiy xalq shevasi asosida shakllangan va ildizlari XI asrga borib taqaladigan Movarounnahr vodiylarida vujudga kelgan”;

So‘nggi bosqich – XVI asr boshlarida Markaziy Osiyo hududiga Dashti Qipchoq qabilalarining kirib kelishi bo‘lib, bu holat “o‘zbek xalqining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida sezilarli yuksalishga olib kelmadi”.

Ushbu sxemadan ko‘rinib turibdiki, Shayboniylarning roli kamsitilgan va ularning tarixiy ahamiyati kamaytirilgan. Bugungi kungacha o‘zbek tarixshunosligida yevrosentrizm saqlanib qolmoqda – ya‘ni “markazlashgan davlat” g‘oyasiga tayangan yondashuv va “cheklangan” oriyentalistik qarashlar hukmron. Mashhur sharqshunos L.Alayev haqli ravishda shunday ta’kidlaydi: “Yevrosentrizmni yengish – bu bizning (ya‘ni sharqshunoslik fanining) ilmiy darajasini oshirish demakdir”. O‘zbek tarixshunosligi o‘rta asrlar sulolalari tarixini o‘rganishda jahon tarix fanining so‘nggi yutuqlarini hisobga olishi, Stalinning “markazlashgan davlat”, “millat shakllanishi” konsepsiyalari hamda muayyan tarixiy davrlarda “madaniy ustunlik” nazariyalari ta’siriga tushib qolmasligi lozim.

Akbar ZAMONOV,
tarix fanlari doktori, professor
Baxtiyor ALIMJONOV,
tarix fanlari nomzodi,
katta ilmiy xodim

Nuqtayi nazar

Ma’lumki, “o‘zbek millati” tushunchasi, “O‘zbekiston” atamasi o‘tgan asr boshlarida paydo bo‘lgan. Ungacha mamlakatimiz hududida amirlik va xonliklar mavjud edi. Markaziy Osiyo hududini respublikalarga ajratish jarayonida sovet olimlari tomonidan aholi o‘rtasida so‘rovlar, etnografik izlanishlar olib borilgan. Xorij olimlari tahlillariga tayangan holda shuni aytish kerakki, bu davrda aholi o‘rtasida o‘zbek millati degan tushuncha mavjud bo‘lmagan. Markaziy Osiyoda ko‘pchilik o‘z millatini “musulmon” deb ta’riflagan. Boshqa hollarda geografik joylashuv, ya’ni aholining shahar yoki qishloqda yashashiga ko‘ra ajratilgan. Biroq asosan sheva yoki lahjalar millatlarni farqlash uchun asos bo‘lgan. Natijalar ko‘pincha bir-biriga zid va chalkash edi. Birgina Markaziy Osiyoda 150 dan ortiq millat va elatlar bo‘lgan. Ayrimlari boshqa millatlar tarkibiga qo‘shib yuborilgan. Natijada, yillar o‘tib millatlar kamayib ketgan.

Sovet tuzumining siyosati ko‘plab millatlar va etnik guruhlarini hisobga olmaslikka harakat qilgani bois yillar davomida ularning ko‘pchiligi yo‘qolib ketgan. O‘tgan asr boshlarida yurtimizda aniq millatga daxldorlik, milliy birlashuv “o‘zbek” nomi ostida bo‘lmagan. Aholi o‘zini musulmon deb hisoblagan xolos. Markaziy Osiyo mintaqasida juda ko‘p millat, etnik guruhlar asrlar davomida tinch-totuv yashab kelishining asosiy negizi ham shunda. Buyuk Ipak yo‘li joylashuvidagi Markaziy Osiyo hududida yuzdan ortiq millatning istiqomat qilishi tabiiy holdir. Turkiston deb ataluvchi bu hududni bir nechta respublikaga ajratish, ularga nom berish nima uchun sovetlarga kerak bo‘lgan? SSSR tanqidchilari tomonidan Markaziy Osiyo chegaralari bo‘linishi ularni bo‘ysundirishga urinish sifatida baholangan. Mintaqada sovet gegemonligini saqlab qolishning bir yo‘li sifatida uning aholisini sun‘iy ravishda alohida xalqlarga bo‘lish va yetakchi millatga mansub bo‘lmagan ozchilikni har bir davlat ichida qoladigan tarzda chegaralarni chizish maqsad qilingan.



Markaziy Osiyo respublikalarining milliy chegaralanishgacha va undan keyingi chegaralari tasviri tushirilgan xarita.

Aslida Turkiston zaminini bir nechta respublikaga ajratishdan maqsad – bu yerda yashovchi aholini o‘ziga bo‘ysundirish, oson boshqaruv usuliga ega bo‘lish edi. Bunda chegaralar atayin noto‘g‘ri tuzilib, millatlararo ziddiyat paydo bo‘lishi ehtimoli bilan har bir hududda boshqa millat vakillari qolishi nazarda tutilgan.


Xalqimiz tarixan bir hududda yashab umrguzaronlik qilib kelib, birining boshqasiga nisbatan ayirmachiligi, xusumati, boshqa millat vakillari bilan ziddiyat bo‘lmaganini milliy madaniyatimizning o‘ziga xosligi deb atash mumkin. Yurtimizga kelgan mehmonlar xalqimizni “mehmondo‘st” deb atashi negizida aynan shu spetsifik xususiyat mujassamdir. Yurtimizda dinlararo, millat va elatlararo ziddiyatlar bo‘lmagan. O‘zini musulmon deb sanaganlar ham boshqa din vakillarini kamsitmagan, tazyiq qilishmagan. Eng katta ne‘mat sifatida tinchlikni e‘zozlagan xalqimizning bunday qadriyatlarini hozirgi globallashuv davrida ham dolzarbligini e‘tirof etish mumkin.

Milliy o‘zlikni anglash – shaxs yoki bir guruh kishining ma’lum bir millat, madaniyat yoki etnik gu-

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH: tarix, mohiyat va asosiy tushunchalar

ruhga mansubligini idrok etishidir. Bu tushuncha o'z madaniyati, tarixi va an'alarining o'ziga xosligini anglashni ham o'z ichiga oladi. Milliy o'zlikni anglash – odamlarni bir umumiy millat, til, madaniyati orqali birlashtiradigan tushuncha. Millat shakllanishida milliy o'zlikni anglashni yuksaltirish kerak. Uning ijobiy ko'rinishi – vatanga muhabbat, milliy g'urur bilan bog'liq pokiza his-tuyg'ulardir.

Millati bilan me'yorida ziyod faxrlanish, boshqa millatlardan o'zini ustun qo'yish – **shovinizm** deb ataladi. Atamaning kelib chiqishi Fransiya tarixining Napoleon davriga borib taqaladi. Hozirgi kunda bu tushunchaga quyidagicha ta'rif berilmoqda: Shovinizm (fransuzcha – chauvinisme) – milliy ustunlik mafkurasi bo'lib, uning maqsadi dunyoning boshqa xalqlarini kamsitish, ekspluatatsiya va zulm qilish huquqini oqlashdan iborat. Vaqt o'tib, o'zining millatini boshqa millatlardan ustun qo'yish xususiyati Rossiya imperiyasiga ko'chib o'tadi va *buyuk rus shovinizmi* tushunchasi paydo bo'ladi. Bu atamani sovetlar tizimi o'ziga boshqa xalqlarni tarafdor qilish va ularni o'z siyosatiga bo'ysundirish uchun Rossiya imperiyasiga nisbatan ishlatadi. Boshqa millat va elatlarga tenglik asosidagi ittifoq va'da qilinadi. Millat ziyolilari siyosatga qarshilik qilishda ayblanib qatag'on qilinadi, xususiy mulk egalarning barcha mulklari tortib olinadi. Bularning bari yo'qsillarga tenglik asosidagi to'kin hayot va'dasi bilan amalga oshiriladi.



“Yashasin, Sharq mazlum mehnatkashlarining butun dunyo mehnatkashlari bilan sotsializm uchun kurashda birligi!” nomli plakat.

Vaqt o'tgach esa sovet siyosati rus tilini gegemon til sifatida qoldirib, qolgan millat va elatlarni o'zidan past ko'ra boshlaydi. “RKP(b)ning 12-syezida Nikolay Buxarin shunday deydi: “Biz [etnik ruslar], sobiq buyuk millat sifatida, o'zimizni boshqalardan pastroq holatda qo'yishimiz kerak. Faqat shunday siyosat bilan boshqa xalqlarning ishonchini qozonishimiz mumkin” (Васильцов, С.; Обухов, С. “Русский вопрос и коммунисты России” Политические партии и самосознание нации. М: Изд во ЦИПКР “Русский летописец”, 2006. 44 с). Stalin partiya syezdlarida milliy masala bo'yicha qilgan ma'ruzalarida “Buyuk rus shovinizmi Sovet davlati uchun asosiy xavf” deb e'lon qiladi. Ammo vaqt o'tishi bilan yangi tashkil etilgan ittifoq hukumatining o'ta markazlashgan tuzilmalari talablari ta'sirida bu g'oya unutilib, mahalliy xalqlarning tili ikkinchi planda qolib, rus tili esa yagona rasmiy tilga aylandi. Tabiiyki, millatini boshqa millatlardan ustun qo'yish, boshqalarni o'zidan past deb bilish, boshqa xalqlar ustidan to'la hukmronlikka, ularni o'z izmida ushlab turishga olib keladi. Millatlarning

o'z tili, madaniyatini unuttirishga harakat qilinadi. Umumiy til, umumiy madaniyat, umumiy qadriyat va tushunchalar shakllantiriladi.

G'arb mutaxassislari Stalin davridagi qatag'on siyosatiga salbiy baho berishadi. Sovet Ittifoqini mustamlakachi imperiya sifatida baholagan ba'zi tarixchilar SSSRga nisbatan “Xalqlar qamoqxonasi” ta'rifini qo'llagan. Tomas Uinderl shunday deb yozgan edi: “SSSR qaysidir ma'noda eski imperiyadan ko'ra kattaroq xalqlar qamoqxonasiga aylandi”.

Milliy o'zlikni unutish, o'z tarixi, madaniyati, qadriyatlarini bilmaslik, sovet davri adabiyotida aksini topdi. Qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov “Asrga tatigulik kun” asarida to'qima obraz orqali o'zligini unutganlarni manqurt deb ataydi va ularni quyidagicha izohlaydi: “Manqurt o'zining kim ekanini, qaysi urug'-aymoqdan ekanini, ismini, bolalik kezlarni, ota-onasining kimligini butunlay yoddan chiqargan bo'lib, o'zining odamligini ham unutib yuboradi”. Chingiz Aytmatov asaridagi manqurt obrazi o'zligini unutgan insonlarga nisbatan ishlatiladigan epitet sifatida kundalik tilga kirib keldi.

Manqurt so'ziga o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'rif beriladi: “O'tmishda, ba'zi ko'chmanchi xalqlarda bandi (asir) tushganlarning sochi qirtishlab olingan, boshiga yangi so'yilgan tuyaning bo'yin terisi qoplanib, terining boshni tobora qattiq qisishi oqibatida xotirasi, aql-idroki, umuman, insonga xos xislat-fazilatlaridan mahrum etilgan shaxs”. Manqurt so'zi o'zligini unutgan, buyruqlarni bajaruvchi odamlarga nisbatan salbiy ma'noda ishlatiladi. Bunday insonlarni boshqaradigan tuzumlar ham qoralanadi. Izohli lug'atda manqurt so'zining ko'chma ma'nosiga ta'rif beriladi: 2. ko'chma. Ana shunday (manqurtga xos) xislat, xususiyatga ega bo'lgan shaxs. “Bu tuzum o'z xalqining tarixi, uning ruhi va urf-odatlari, o'z avlod-ajdodlarini bilmaydigan manqurtlarga tayanar edi”.

Chingiz Aytmatov manqurt obrazi orqali sovet davlatidagi siyosiy tizimga bo'ysunib, o'zligini unutgan, milliy madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlarini bilmaydigan, iymon va e'tiqodsiz, faqat buyruqlarni bajaradigan qulsifat odamlarni tasvirlagan. Ko'plab xalqlarning milliy o'ziga xosligini unutishi, millatlarning yo'qolib borishi sovet davlat tuzumining salbiy oqibatlaridan biri bo'lgan. Sovet davlati parchalanib, respublikalar mustaqillikka erishgach, ularning bari o'z madaniyati, tili, tarixini tiklashga harakat qildilar.

O'zbekiston ham mustaqillikka erishgach, milliy o'zlikni anglash, milliy madaniyatni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu borada ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari yetakchi o'rin egalladi, milliy-ma'naviy qadriyatlar tiklanishiga alohida e'tibor qaratildi. Milliy identiklikni tiklash, saqlab qolish va uni ilmiy tafakkur qilishga katta e'tibor qaratilishi bugungi globallashuv davrida yana dolzarblashmoqda. Nafaqat sobiq sovet davlatlari orasida, balki butun dunyo millat va elatlari uchun axborot asrining eng zaruriy talablari qatorida milliy o'zlikni saqlab qolish masalasi paydo bo'ldi. Ayniqsa, media mutaxassislari uchun bu jarayonning ilmiy ildizini tahlil qila olish dolzarb masaladir.

Milliy identiklik vatanga muhabbat, boshqa fuqarolar oldidagi burch kabi tuyg'ularni ham paydo qiladi. Milliy g'urur va o'z mamlakatining o'ziga xosligini anglash etnik guruhlar o'rtasidagi totuvlikka turtki bo'ladi. Masalan, AQSHda turli etnik guruhlar umumiy Amerika o'ziga xosligiga integratsiyalashgan. Aholini milliy g'urur va AQSHga tegishlilik hissi birlashtirib, etnik nizolarni yumshatishga zamin hozirlaydi. Mamlakat umumiy xavf yoki tabiiy ofatlarga duch kelganda

milliy o'ziga xoslik yorqin namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, 2001-yil 11-sentabrda terraktlardan so'ng AQSHda vatanparvarlik va milliy o'zlikni anglashning yuksalishi kuzatilgan. Bu voqealardan so'ng aholida milliy o'ziga xoslik hissi kuchayadi.

Bir necha etnik guruhlar yashaydigan mamlakatlar-da etnik guruhlar orasida ziddiyatlar bo'lishi mumkin. Bunday nizolar odatda etnomilliy deb ataladi. Mashhur etnomilliy mojarolardan biri Avstraliya hukumati va Avstraliyaning tub aholisi o'rtasidagi ziddiyatdir. Avstraliya hukumati Yevropa madaniy qadriyatlari va ingliz tilining milliy til sifatidagi siyosatini o'rnatdi. Hukumat deyarli yo'q bo'lib ketayotgan aborigenlarning madaniyati, qadriyatlari va milliy tillarini qo'llab-quvvatlamadi.

Dunyo bo'yicha immigratsiya kuchayib borayotgani sabab ko'plab mamlakatlar milliy identiklikni rivojlantirish va immigrantlarni qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ba'zi mamlakatlar immigrantlarni kutib oluvchi mamlakatga tegishlilik tuyg'usini rivojlantirishga harakat qilishadi. Misol uchun, Kanada muntazam immigratsiya bo'yicha dunyoda yuqori ko'rsatkichga ega. Kanada hukumati migrantlarda Kanadaga tegishlilik hissini shakllantirishga undaydi, Kanadada tug'ilganlarni ham, immigrantlarni ham birlashtiruvchi milliy o'ziga xoslik tushunchasi ilgari suriladi.

Dunyo tobora globallashib borar ekan, xalqaro turizm, aloqa va ishbilarmonlik rivojlanmoqda. Odamlar madaniy almashinuv, ta'lim, biznes va boshqa turmush tarzini izlash uchun milliy davlat chegaralarini ko'proq kesib o'tishmoqda. Globallashuv qadriyat va tajribalarning tarqalishiga yordam beradi va global jamiyat o'ziga xosligini rag'batlantiradi. Odamlar kosmopolitizmni qabul qilishi va o'zlarini dunyo fuqarolari sifatida qabul qilishi mumkin. Bu qarashlar milliy identiklikka tahdid solishi ehtimoli mavjud, chunki globallashuv ma'lum bir mamlakatda fuqarolikning ahamiyatini pasaytiradi. Bir qancha tadqiqotchilar mamlakat globallashgan sari vatanparvarlik pasayib borishini aniqladi. Biroq Turkiya kabi savdo yo'llari va xalqaro bozorda muhim o'rinni egallagan mamlakat ham ma'lum darajada etnosentrizmga bo'ysunadi. Aholining aksariyati import qilinadigan tovarlardan qolishmaydigan sifatli mahalliy mahsulotlarni afzal ko'radi. Bu bilan ular mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishi va ish o'rinlari yaratilishini tushunadi.

Milliy o'zlikni anglash jarayoni o'smirlik davridan boshlanadi, vaqt o'tishi bilan hayotdagi tajribasi, bilim olishi, dunyoqarashining kengayishi va milliy guruhga mansublik hissi uyg'unligi bilan bu tushuncha shakllanadi. Milliy o'zlikni anglash, ma'lum bir guruh odamlarini to'g'ri tushunishga yordam beradi. Buning uchun jamiyatning tashkil etilishi, undagi turmush tarzi, tafakkuri va ijtimoiy psixologiyasini tushunish zarur. Tarbiya, ta'lim va milliy til – madaniy o'zlikning asosidir. Tarbiya va ta'lim tizimi, milliy madaniyatni asrab-avaylash va uni keyingi avlodlarga yetkazish borasida yurtimizda ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu sa'y-harakatlar millat tili, uning urf-odatlarini saqlashni, yosh avlodning madaniy identifikatsiyasi shakllanishini ta'minlaydi. Xalqimizning necha ming yillik o'ziga xos qadriyatlarini hisobga olib, shuni aytish mumkinki, milliy o'zlikni anglash – o'zining millatini boshqasidan ustun qo'yish emas. Balki kimligi, kimlarning avlodi ekanini anglash, ularga munosib bo'lishga harakat qilishdir.

Yulduz ORTIQOVA,
filologiya fanlari doktori,
O'zDJTU “Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar” kafedrası professori v.b.

Tibbiyot tarixi

TRITADAN BOSHLANGAN
TIB TAMADDUNI

Zardushtiylik manbalarida yozilishicha, dunyoda birinchi bo'lib Trita ismli inson shifokorlik bilan shug'ullangan. Insonlarni kasallig-u o'limdan saqlagan.

Inson hayotining bosh mezoni – salomatlik. Begona bir shaxsning hayoti uchun kuyib-pishib yashaydigan kasb egalari esa shifokorlardir. Tibbiyot – insoniyat paydo bo'lganidan buyon inson hayoti bilan uzviy bog'liq holda shakllanib kelayotgan sohadir. Fan sifatida u eng qadimiy bilim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Inson ongi rivojlana boshlagan ilk davrlardan oq u tana og'rig'iga davo izlagan. Qo'liga tayoq tutishni o'rganganidan, go'sht pishirishni kashf etganidan buyon u davo sirlarini ham o'rganib kelgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, ibtidoiy inson ajdodlari Osiyoda million yillar avval yashay boshlagan. Tibbiyotning dastlabki shakllari ham ana shu qadimiy hududlarda yuzaga kelgan. Ibtidoiy odamlar atrof-muhitni, hayvonlarni kuzatgan, qaysi o'simlik qaysi dardga davo bo'lishini tajriba orqali aniqlagan. Zaharlanishni boshdan kechirgan, ba'zan zaharni yenggan; oyog'i singanda esa tik yurish uchun yog'och yoki taxta bog'lashni o'rgangan. Inson yashashni yaxshi ko'rgan, o'limni yomon ko'rgan. U kasallikdan davo topolmasa, hayotdan ayrilishini anglagan. Til vositasida muloqot to'liq shakllanmagan davrlardayoq u minglab amaliy tajribalarni boshdan kechirgan.

Samarqand tog'laridan topilgan ona-bola haykalchalari (Anaxita-Chita) matriarxat davriga mansub bo'lib, o'sha zamonlardayoq ona-bola salomatligiga jamiyatning e'tibori naqadar yuksak ekani ni ko'rsatadi. Nasl sog'lomligi – kelajak poydevori.

Sharq xalqlari yozuvni yaratish bilan kasalliklar tasnifini toshlarga, sopollarga, terilarga yozgan. Biroq ularning barchasi bizgacha yetib kelmagan. Davrimizga qadar saqlanib qolgan eng qadimiy asar G'arbda yaratilgan Gippokratning “Qadimgi tib” asaridir. Bu kitob qadimgi tibbiyot haqida ma'lumot beradi. Gippokratdan oldin ham Sharqda ko'z tabiblari, tish davolovchilar va jarrohlik bilan shug'ullangan tabiblar yashagan. Sharq tabobati bilan uzviy aloqada bo'lgan qadimgi Misrda esa, issiq iqlim sharoitida jasadni chiritmay saqlash – mumiyolash san'ati rivojlangan. Bu tajribalar inson tanasining tuzilishi va kasalliklarini kuzatish imkonini bergan.

Vatanimiz tarixiga nazar tashlasak, bu qadim tuproqda tibbiyot haqidagi eng qadimgi yozma manba “Avesto”dir. Unda tilga olingan to'rt unsur inson bilan chambarchas bog'liq. Zardushtiylikda yer, suv, havo, quyosh (olov) muqaddas hisoblangan. Quyosh yonib turgan olov ekanligi aytilib o'tilgan. Olov ins-jinslardan tozalasa, bakteriyalarni kuydirsa, quyosh tiriklikka jon bo'lishi haqida ishoralar berilgan. Yer, suv va havoni iflos qilish katta gunoh ekanligi yozib qoldirilgan. Inson salomatligini saqlash uchun, birinchi navbatda, o'lgan odamning jasadidan yiroq bo'lish kerakligi haqida shu qadimiy yodgorlikda bitilgan. Murdadan inson hayoti uchun xavfli turli yuqumli kasalliklar tarqalishi diniy aqida orqali singdirilgan. Mayitni yerga ko'mish, olovda yoqish, suvga cho'ktirish mumkin bo'lmagan. Odamlar yashamaydigan olis joyga, turli tepaliklarga tashlab kelishgan. Qushlar, quzg'unlar, o'laksaxo'rlar murda etini to'lig'icha yeb bitirgach, bakteriyalardan xalos bo'lgan zararsiz suyaklar qolgan. Bu suyaklarni

ko'zalarga (ostodon) solib maxsus qurilgan uylarda saqlashgan.

“Avesto”da yozilishicha, odam gavdasi sakkiz qismga bo'linadi. Bular suyak, mushak, yog', miya, tomir, qon, jigar va o't qopidir. Qizil va qora (harom qon) qon oquvchi tomirlar bor. Oq qon tashuvchi va qon tashimaydigan tomir tolalari haqida ham so'z yuritilgan. Sezish, eshitish, ko'rish va ta'm bilish miyada joylashgan. Qon yurakda, nasl urug'i suyakda bo'ladi deb aytilgan. Insonning hayot manbayi deb suv va olov keltirilgan. Hayot qaynoq, olovli jarayon, o'lim esa issiqlikning tugashi, tananing sovushi, suvning qurishi bilan boshlanadi, deyilgan.

“Avesto”da kasalliklardan forig' bo'lish uchun uch xil davo usuli keltirib o'tilgan. Bular tig', o'simlik va turli damlamalar hamda so'z bilan davolashdir. Ezgu niyat, ezgu amal, ezgu so'z – “Avesto”ning asosiy tamoyili. Bu usul ruhshunoslikdir. Kitobda tabib bo'lishni istagan odam avvalo imtihondan o'tkazilgani haqida ma'lumotlar bor. Imtihonda talabgor-dan kamida uch bemorni davolashi talab etilgan. Shu shartni bajara olganlarga keyinchalik shifokorlik qilishda davom etgan. Zardushtiylarning bu muqaddas kitobida qadimgi tibbiyot haqida yana ko'plab qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Makedoniyalik Aleksandr Movaroun-nahrni zabt etgach, u bilan birga yunon madaniyati ham bu tuproqlarga kirib keldi. Aholi ellinlashtirildi. Tib ilmi yanada rivojlandi...

Arablar bosqinidan so'ng esa barcha ilmiy boyliklarimiz tag-tugi bilan yo'qotildi. Kohinlarning boshi kesildi, shifokorlar dorga osildi, Beruniy yozgani kabi hatto biror narsani yod olgan odamlar ham qilichdan o'tkazildi. O'timishni unuttirish uchun yov bor imkoniyatidan foydalandi. Kitoblar yoqildi, go'daklar chopildi.

Muqaddas tuprog'imizda arablar bosqinidagi vayronagarchiliklar tugab, hayot yana o'z o'zaniga qayta boshlagach, o'ninchi asrlarga kelib ikki daryo oralig'ida ilm chechaklari yana kurtak yoydi. Ma'mun akademiyasi, Buxorodagi Somoniylar kutubxonasi bunga guvohlik beradi. Aynan o'sha davrda bu shaharlardagi shifoxonalar dunyoning boshqa bir hududida topilmas edi.

Sharq mutafakkirlari shifokorlarni shoirlarga o'xshatadi. Shoirlar jamiyatga, tabiatga, ko'ngilga, inson ruhiga jon bag'ishlasa, shifokorlar inson tanasiga jon bag'ishlaydi deyildilar. Tirik va sog'lom jismsiz esa na ko'ngil, na jamiyat, na tabiat yashay oladi.

O'rta asrlarga kelib Sharq tabiblari, mutafakkirlari tib tamaddunini boshlab bergan. Najubiddin Samarqandiy, Sharafiddin Iloqiy, Al-Balxakiy, Abu Mansur Qamariy, Abu Sahl Masihiy, Al-Kiftiy, Tabariy, Al-Hammar, Abu Usaybia, Abu Bakr Roziy, Ibn Sino, Ismoil Jurjoniyy va boshqalar tibbiyot faniga, dunyo tibbiyoti rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar.

Buyuk bobomiz Muhammad al-Xorazmiy dunyoda birinchi bo'lib oltingugurt kislotasi, natriy, kumush nitrati, azot kislotasi va boshqa bir qancha moddalarni sintez qilgan ilk olimlardandir. Shu sababli u farmatsevtika sohasining ham tamal toshini qo'ygan inson sifatida qadrlanadi. Dunyodagi ilk dorixonalar ham aynan biz-

ning hududlarda – Buxoro, Samarqandda, keyin Qohira va Bag'dodda ochilgan.

X asr oxirida taxt Somoniylardan Qoraxoniylarga o'tdi. Tabg'ach xon Samarqandni yana qayta poytaxt qilib belgiladi. Shaharda ko'plab yangi shifoxonalar qurildi. 1066-yili “Samarqand tibbiyot bilimlari uyi” nomli madrasa va shifoxona yonma-yon qurilgan. Tibga ixtisoslashgan bu madrasada ko'plab shifokorlar yetishib chiqdi. Bosh shifokor etib Muhammad ibn Abdul Malik as-Safar tayinlandi. Bu muassasaning bosh mudiri esa mashhur olim Abu Tohir ibn Abdurahmon ibn Hasan edi. Shifoxonada bemorlar uchun qo'nalg'alar-dan tashqari qariyalar va kasallar uchun alohida bo'limlar mavjud bo'lgan. Shifoxona davlat xazinasi tomonidan moliyalashtirilgan. Ajratilgan mablag'dan o'n ulushi shifokorlarga oylik qilib berilgan. Uch ulushi bakovullarga, besh ulushi farroshlarga, uch ulushi shifoxonadagi imomlarga, ikki ulushi qonlarni yuvib tashqariga chiqaruvchilarga, o'n-besh ulushi bemorlarning oziq-ovqatiga, uch ulushi shifoxona ta'miriga qarab yuruvchi ustalarga va qolgani boshqa xarajatlariga sarflangan. Madrasa uchun esa yiliga o'ttiz besh ming dirham atrofida pul ajratilgan, bosh mudarris moyanasi – 2000, o'qituvchilarga faniga qarab 1200–1500, talabalarga 1800 dirham atrofida berilgan. O'sha vaqtda Samarqandning mashhur tabibi Najibuddin Samarqandiy edi...

So'ng mo'g'ullar bosqini so'ngsiz vayronagarchilik keltirdi. Shifoxonalarga o't qo'yildi, ko'plab tabiblar qatl etildi. Qoraxoniylar bilan Temuriylar o'rtasidagi ikki asr ilmda yo'qlik va tanazzul davri bo'ldi. 1370-yillarga kelib temuriylar davlati vujudga keldi. Mamlakatda yana madaniy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu jarayonda tibbiyot ham rivojlandi. Kasalxonalar, dorixonalar, kutubxonalar barpo etildi. Madrasalarda boshqa bilimlar qatori tibbiy bilimlar ham o'qitildi. Har bir shaharda shifoxona qurildi. Samarqandda “Dorushshifo” nomli yirik kasalxona bo'lib, unga o'z zamonasining taniqli tabibi va olimi Mir Sayid Sharif Sheroziy rahbarlik qilgan. Shu davrda Samarqandda yana bir tabib, olim Mansur ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf ibn Ilyos yashagan. Mavlono Fayzulloh Tabriziy Amir Temurning shaxsiy tabibi edi. Temurbekning o'g'li Shohruh, nabirasi Ulug'bek ham tibbiyotga e'tiborli bo'ldi. Mirzo Ulug'bek Samarqandda yangi bir shifoxona qurdirib, unda ishlash uchun Kirmon shahridan mashhur tabib Burhoniddin Nafis ibn Avazni olib keldi. Mohir jarrohlardan Tojiddin Hakim ham ushbu shifoxonada ishlardi.

Temuriylar sulolasining davomchilaridan biri Sulton Husayn Boyqaro hukmronlik qilgan vaqtda ham tibbiyotga yetarli darajada e'tibor berildi. Movarounnahr va Xurosonning har bir shahrida shifoxonalar barpo etilgan bo'lib, ularning har birida o'nlab tajribali tabiblar bemorlarni davolash bilan mashg'ul bo'lgan. Shulardan biri Ne'matulloh ibn Faxriddin Muborakshoh Hakim Kironiy bo'lib, u Husayn Boyqaroning shaxsiy tabibi edi. U mashhur “Xosiyatlar dengizi” asarining muallifi hamdir. Husayn Boyqaro saroyida u bilan birga mashhur tabib Muhammad Husayn Nurbaxshiy Bahouddavla ibn Mirqivomiddin ham xizmat qilgan. Uning “Tajribalar xulosasi” asari darlik sifatida tuzilgan bo'lib, talabalarga mo'ljallangan edi. Unda kasallarga tashxis qo'yish va ularni davolash usullari ko'rsatilgan. U asarida o'z tajribalariga asoslanib, ilgari tabiblarga ma'lum bo'lmagan xastaliklarni keltiradi.

Bolalarda uchraydigan allergik kasalliklar ilk bor shu asarda tasniflangan. Nurbaxshiy Bahouddavla birinchi bo'lib pediatriklarga qo'llanma bo'ladigan, bolalarda uchraydigan ko'kyo'tal, zahm kasalliklari haqida ma'lumot bergan va ularni davolagan. Amir Alisher bu davrda Husayn Boyqaroga yelkadosh bo'lib ko'plab shifoxona va dorixonalarni o'z hisobidan qurdirgan. Navoiyning tibbiyot, tabiblar va salomatlik haqidagi fikrlari “Mahbub ul-qulub” asarida bayon etilgan. Hirot kasalxonasi-ga Mavlono G'iyosiddin Muhammad ibn Jaloliddin bosh shifokor etib tayinlangan. Kasalxonaga kelgan kambag'al, nochor bemorlarni davolash bepul bo'lgan. Ular yemak bilan ta'minlangan. Hirot qal'asi ichida yana bir shifoxona “Dorul shifo” Navoiyning o'ziga tegishli bo'lgan. Xondamirning yozishicha, bu shifoxonada talabalar amaliyot ustida o'qitilgan. Jarrohlarning eng mohiri bu shifoxonada Shayx Husayn edi. Navoiy barpo etgan “Shifoia” kasalxonasining davrug'i esa butun olamga yoyilgandi. O'sha davr bilan hamnafas Muhammad Mo'yin, Qutbiddin Odam, G'iyosiddin Darvishali, Abdullaxayr Tuniy, Nizomiddin Abdulhay, Sulton Murod, Shomiy kabi mashhur tabiblar bo'lgan.

Bobur saroyida ham tibbiyot olimlari ko'p edi. Ulardan biri Yusuf ibn Muhammad ibn Yusuf al-Xaraviydir. U Yusufiy taxallusi bilan ko'plab tibbiyotga doir asarlar yozgan. Yusufiyning “Sog'liqni saqlash haqida risola”, “Ovqat va ichimliklar haqida risola”, “Saxiy kishilarga foyda keltirish”, “Kasalliklarni davolash”, “Yusuf tibbiyoti” kabi asarlari mashhurdir. “Yusuf tibbiyoti” asari o'sha davrlarda Yevropa tillariga tarjima qilinib o'rganilgan. 1882-yili o'zbek tiliga ham o'girilgan.

Bobur bilan bir zamonda Movarounnahrda podsholikni egallagan Shayboni-xon ham ma'rifatga katta e'tibor berdi. Shayboniylar hukmronlik qilgan davrda mamlakatda ilm-fan va tibbiyot rivojlandi. Deyarli har bir shaharda kasalxona, nogironlar uyi, dorixonalar, tibbiy maktablar bor edi. Muhammad Husayn al-Miroqiy as-Samarqandiy, Shoh Ali ibn Sulaymon al-Kaxxol, Sulton Ali Xurosoniy, Mullo Muhammad Yusuf, Ubaydulla ibn Yusuf Ali al-Kaxxol, Mir Muhammad Husayn al-Oqiliylar o'sha davrning mashhur tabiblaridirlar. Muhammad Husayn al-Miroqiy as-Samarqandiy dorishunoslikka oid asar yozib, dori tayyorlash va ishlatish usullarini batafsil bayon etgan. Kitobda turli dorivor o'simliklarning rangli rasmlari, asbob-uskunalar, dori saqlanadigan idishlarning rasmlari ham keltiriladi.

Keyingi davrlarda esa xonliklarning bir-biridan koj bo'lib, bo'linib ketishi, din peshvolarining mazhab ajratishi-yu, bid'atga berilishi evaziga ilm-fanning barcha sohalariga qatori bu muqaddas zaminda tibbiyot ham tanazzulga yuz tutdi. Biroq bu tuproqda qolgan ildizlar uzilib qolmadi. Abulg'ozixon, Subhonqulixon kabi xonlarimizning o'zlari tabiblik bilan shug'ullanib tabobat haqida asarlar yozdi. Solih Qandahoriy, Yaypaniy, Junaydulla Hoziq, Ataulli, Jafar Hazoraspiy kabi yetuk tabiblar yetishib chiqdi.

Bugungi tibbiy ta'lim masalasi – kela-jak taqdiri bilan bog'liq muhim masaladir. Bu, ayni paytda, o'tgan buyuk mutafakkirlarga munosib voris bo'lishdir. Bunday maqsadlarga faqat puxta ta'lim va tarixiy merosni o'ziga ma'naviy oyna qilib olish orqali erishish mumkin.

Tibbiyot sohasiga kirib kelayotgan yoshlar bilimga cheksiz intilishi, insoniyatga xizmat qilish mas'uliyatini teran anglashi zarur. Ular ajdodlar, jumladan, Najibuddin Samarqandiy kabi allomalar ishini davom ettirish mas'uliyatini his etishlari kerak.

Talant PIRIMOV,
pedagog, mustaqil tadqiqotchi
Xurshid ISLOMOV,
O'zbekiston onkologlar
uyushmasi raisi



Rasaxodjayev Baxramjan Sabirovichning 05.05.04 – Sanoat issiqlik energitikasi hamda 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosliklari bo'yicha “Avtonom energetik komplekslarga ega quyosh issiqxonalari energiya ta'minot tizimlarining energiya samaradorligini oshirish” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika univesiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.28.11.T.17.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 10-mart kuni soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.

Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: kstu.@kstu.uz

Sharipov Azizbek Tolibovichning 14.00.41 – Xalq tabobati hamda 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya ixtisosliklari bo'yicha “Bolalar serebral paralichini xalq tabobati usullari bilan davolash samaradorligini bashorat qilishning immunopatogenetik jihatlari” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-mart kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-0050; e-mail: info@bsmi.uz

G'afforova Visola Furqatovnaning 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha “Bolalardagi febril tutqanoqlarning klinik-neyrofizilogik va neyroimmunologik xususiyatlari, profilaktik choralari optimallashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 18-mart kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (71) 268-17-44; e-mail: info@bsmi.uz

Erxanova Aziza Amirillayevnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Monoxorial ko'p homilali homiladorlikda bir homila antenatal o'limi kuzatilgan homiladorlarni olib borish taktikasini optimallashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-mart kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100124, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,

Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 132-“a” uy.

Tel/faks: (71) 263-33-14; e-mail: info@uzaig.uz

Mirzaqulova Shaxnoza Nematilla qizining 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo'yicha “Atopik dermatit kasalligining og'irlik darajasini tashxislash dasturini ishlab chiqish va davolash muolajalarini takomillashtirish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-mart kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko'chasi, 3-uy.

Tel/faks: (78) 147-02-06; e-mail: niidiv@mail.ru

Safoyeva Salomat Musoyevnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Ikki lamchi tuxumdon polikistozini davolashda differensial yondashuvni klinik va patogenetik asoslash” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.03.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-mart kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,

Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 132- “a” uy.

Tel/faks: (71) 263-78-18; e-mail: info@tsul.uz

Shoraxmedov Shoraxmat Shorasulovichning 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo'yicha “Soch follikulasi siklida ishtirok etuvchi asosiy signal molekulalarining o'choqli soch to'kilish patogenezidagi o'rni va ularni korreksiya qilish usullari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-mart kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko'chasi, 3-uy.

Tel/faks: (78) 147-02-06; e-mail: niidiv@mail.ru

Bozorov Shahobjon Ismat o'g'lining 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha “Birlamchi bosh og'riqlaridagi uyqu buzilishlarining erta diagnostikasi va profilaktikasi” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 6-mart kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Jo'rayev Ruzimurod Sattorovichning 02.00.03 – Organik kimyo ixtisosligi bo'yicha “Uch atomli fenollarni xloratsetillash va xloratsetil mahsulotlar asosida sintezlar” mavzusidagi(kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.K.04.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-mart kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111700, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.

Tel/faks: (70) 716-68-05, 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz

Nigmatullayeva Muxabbat Akbarovnaning 14.00.05 – Ichki kasalliklar hamda 14.00.43 – Profilaktik tibbiyot ixtisosliklari bo'yicha “Fertil yoshdagi ayollarda arterial gipertenziyaning o'ziga xos klinik kechish xususiyatlarini o'rganish va ularning oldini olishni takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 10-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Nurilloeva Shahodat Nurillo qizining 14.00.05 – Ichki kasalliklar ixtisosligi bo'yicha “Giperglikemiyaning turli darajalarida semirish profilaktikasi va tana vazni holati” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 10-mart kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Xatamova Sarvinov Muiytdinovnaning 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha “Surunkali bosh miya ishemiyasida kognitiv buzilishlar rivojlanishida gipergomotsisteinemiyaning roli” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 6-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (71) 268-17-44; e-mail: info@bsmi.uz

Mamurova Nadira Ergashbayevnaning 06.01.02 – Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha “Kuzgi bug'doyning Davr va Vexa navlarini parvarishlashda sug'orish tartiblarini ishlab chiqish(Farg'ona viloyati misolida)” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 10-mart kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;

veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuaginfo@edu.uz

Karimov Nuriddin Payzullayevichning 06.01.02 – Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha “Och tusli bo'z tuproqlar sharoitida kuzgi bug'doyni suv tejamkor sug'orish texnologiyasini ishlab chiqish(Qashqadaryo viloyati misolida)” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 10-mart kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;

veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuaginfo@edu.uz

Allazarov Kuvondik Azodovichning 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha “Surunkali gastroduodenit bo'lgan bemorlarda surunkali retsidivlanuvchi aftoz stomatitni davolashni takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 6-mart kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

Tel/faks: (66) 233-30-34, 233-07-66; e-mail: ilmiyprorektor@sammu.uz

Umirov O'ktam Farxodovichning 02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi” hamda 11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ixtisosliklari bo'yicha “Mahalliy kremniyli mineral xomashyo va aylant daraxti asosida sorbentlar olish hamda ularni oqova suvlarni tozalashda qo'llash texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD)dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 210100, Navoiy shahri, G'alaba shohko'chasi, 76-“v” uy.

Telfaks: (79) 223-23-32, 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz



O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI PEDAGOG XODIMLAR LAVOZIMLARINI SHARTNOMA ASOSIDA EGALLASH UCHUN TANLOV E'LON QILADI:

Kafedra mudiri lavozimiga: “Jangovar yakkakurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Gandbol, regbi, chim ustida xokkey nazariyasi va uslubiyati”, “Gimnastika sport turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Eshkak eshish sport turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Tennis, badminton, stol tennisi nazariyasi va uslubiyati”, “Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubiyati”, “Yengil atletika nazariyasi va uslubiyati” *kafedralariga*.

Professor lavozimiga: “Boks nazariyasi va uslubiyati”, “Jangovar yakkakurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Futbol nazariyasi va uslubiyati”, “Gandbol, regbi, chim ustida xokkey nazariyasi va uslubiyati”, “Gimnastika sport turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Og‘ir atletika, ot sporti nazariyasi va uslubiyati”, “Eshkak eshish sport turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Taekvondo, qilichbozlik nazariyasi va uslubiyati”, “Tennis, badminton, stol tennisi nazariyasi va uslubiyati”, “Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubiyati”, “Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va uslubiyati”, “Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish”, “Tibbiy-biologik fanlar”, “Ijtimoiy gumanitar fanlar” *kafedralariga*.

Dotsent lavozimiga: “Boks nazariyasi va uslubiyati”, “Futbol nazariyasi va uslubiyati”, “Gimnastika sport turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Qishki va murakkab-texnik sport turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Suv sporti turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Eshkak eshish sport turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Voleybol, basketbol nazariyasi va uslubiyati”, “Dzyudo, sambo nazariyasi va uslubiyati”, “Yengil atletika nazariyasi va uslubiyati”, “Adaptiv jismoniy tarbiya va parasport”, “Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va uslubiyati”, “Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish”, “Tibbiy-biologik fanlar”, “Ijtimoiy gumanitar fanlar” *kafedralariga*.

Katta o‘qituvchi lavozimiga: “Boks nazariyasi va uslubiyati”, “Jangovar yakkakurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Futbol nazariyasi va uslubiyati”, “Gandbol, regbi, chim ustida xokkey nazariyasi va uslubiyati”, “Gimnastika sport turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Milliy kurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Eshkak eshish

sport turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Tennis, badminton, stol tennisi nazariyasi va uslubiyati”, “Sport kurashlari nazariyasi va uslubiyati”, “Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va uslubiyati”, “Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish”, “Tibbiy-biologik fanlar”, “Ijtimoiy gumanitar fanlar” *kafedralariga*.

O‘qituvchi lavozimiga: “Jangovar yakkakurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Gandbol, regbi, chim ustida xokkey nazariyasi va uslubiyati”, “Gimnastika sport turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Qishki va murakkab-texnik sport turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Og‘ir atletika, ot sporti nazariyasi va uslubiyati”, “Suv sporti turlari nazariyasi va uslubiyati”, “Tennis, badminton, stol tennisi nazariyasi va uslubiyati”, “Sport kurashlari nazariyasi va uslubiyati”, “Dzyudo, sambo nazariyasi va uslubiyati”, “Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish”, “Sport psixologiyasi va pedagogika”, “O‘zbek va chet tillari”, “Ijtimoiy gumanitar fanlar” *kafedralariga*.

TANLOVDA ISHTIROK ETISH ISTAGINI BILDIRGANLAR QUYIDAGI HUJJATLARNI TAQDIM ETISHLARI LOZIM:

- O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektori nomiga ariza;
- pasport nusxasi;
- kadrlarni qayd qilish shaxsiy varaqasi;
- oliy ma‘lumoti haqidagi diplom nusxasi.

Qatnashuvchilarda ilmiy daraja, ilmiy unvon, shuningdek, ilmiy ishlar va ixtirolar mavjud bo‘lgan taqdirda ular tegishli diplomlar, attestatlar nusxalari, ilmiy ishlar ro‘yxati hamda malaka oshirganlik to‘g‘risidagi guvohnoma nusxalarini taqdim etishlari kerak.

Eslatma. *Tanlovda ishtirok etish uchun arizalar e‘lon chop etilgan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.*

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Chirchiq shahri,
Sportchilar ko‘chasi, 19-uy.
Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;
e-mail: info@jtsu.uz



Boydadayev Abdurrohmon Tolibjon o'g'lining 09.00.03 – Falsafa tarixi ixtisosligi bo'yicha “Zamonaviy falsafa tarixida ong konsepsiyasiga ratsional va irratsional yondashuvlarning komparativistik tahlili” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 10174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Kim Aleksey Albertovichning 14.00.08 – Oftalmologiya ixtisosligi bo'yicha “Keratokonususni kompleks davolashning samaradorligini klinik va funksional asoslash” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 6-mart kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34, 233-07-66; e-mail: ilmiyprorektori@sammu.uz

Nishanbayeva Aziza Ilgisovnaning 10.00.05 – Osiyo va Afrika xalqlari tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha “Alisher Navoiy “Xamsa” asaridagi forsiy affiksoidlar bilan yasalgan so'zlarning struktur-semantik tahlili” mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur ko'chasi, 20-uy.
Tel/faks: (71) 233-34-24;
veb-sayt: www.tsuos.uz; e-mail: info@tsuos.uz, Tdshu@exat.uz

Rustamova Muslimaxon Ma'ruffon qizining 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha “Abe Koboning “Qumdag xotin” asari tarjimasining lingvopoetik tahlili” mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-mart kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur ko'chasi, 20-uy.
Tel/faks: (71) 233-34-24;
veb-sayt: www.tsuos.uz; e-mail: info@tsuos.uz, Tdshu@exat.uz

Axmedova Anoraxon Shavkat qizining 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha “Muzokaralar muvaffaqiyatini belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillar” mavzusidagi(psixologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.P.01.18 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 6-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshket shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Suleymanov Sarvar Sunatullayevichning 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha “Yangi O'zbekiston ma'naviy taraqqiyot tamoyillarining o'ziga xos xususiyatlari(ijtimoiy-falsafiy tahlil)” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-mart kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Ibotov Shohruh Xurmatullo o'g'lining 02.00.10 – Bioorganik kimyo ixtisosligi bo'yicha “Amaranthaceae oilasining beshta tur galofit o'simliklari lipidlarining tarkibi va biologik faolligi” mavzusidagi(kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, akademik S.Yunusov nomidagi O'simlik moddalar kimyosi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.K/T.20.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-mart kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy.
Tel/faks: (71) 262-59-13, 262-71-09, 262-74-03;
veb-sayt: https://uzicps.uz; e-mail: ixrv@exat.uz, icps@umail.uz

Abzoirov Quadrat Musulmonovichning 14.00.11 – Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo'yicha “Zaxmdagi serorezistentlik holatining sabablarini o'rganish va davolashni takomillashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi imiy darajalar beruvchi DSc.04/28.02.2023.Tib.158.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100109, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Forobiy ko'chasi, 3-uy.
Tel/faks: (71) 214-50-14;
veb-sayt: www.dermatology.uz; e-mail: niidiv@mail.ru

Zaripova Saragul Orifjonovnaning 14.00.10 – Yuqumli kasalliklar ixtisosligi bo'yicha “O'tkir respirator virusli infeksiyalar orasida TORCH-infeksiyasining klinik-diagnostik xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi imiy darajalar beruvchi DSc.06/29.02.2024.Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-mart kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: info@bsmi.uz

Maxmudova Shoxista Raximjonovnaning 02.00.10 – Bioorganik kimyo ixtisosligi bo'yicha “O'zbekiston florasidagi Crocus sativus va Senecio subdentatus o'simliklarining kimyoviy tarkibi va xossalari” mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, akademik S.Yunusov nomidagi O'simlik moddalar kimyosi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.K/T.20.01.M raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy.
Tel/faks: (71) 262-59-13, 262-71-09, 262-74-03;
veb-sayt: https://uzicps.uz; e-mail: ixrv@mail.ru, icps@umail.uz

G'aniyev Adham Asqarali o'g'lining 02.00.10 – Bioorganik kimyo ixtisosligi bo'yicha “Artemisia porrecta va Artemisia persica o'simliklarining ikkilamchi metabolitlari tuzilishi va stereokimyosini YMR spektroskopiyasi usulida tadqiq qilish” mavzusidagi(kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, akademik S.Yunusov nomidagi O'simlik moddalar kimyosi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.K/T.20.01.M raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-mart kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy.
Tel/faks: (71) 262-59-13, 262-71-09, 262-74-03;
veb-sayt: https://uzicps.uz; e-mail: ixrv@mail.ru, icps@umail.uz

Rahimova Zulayho Abdug'ofur qizining 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Talaba-qizlarning darsdan tashqari vaqtlarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkillashtirishning pedagogik asoslari” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy daralar beruvchi DSc.28/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100202, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangi O'zbekiston ko'chasi, Olimpiya shaharchasi.
Tel/faks: (71) 242-30-87;
veb-sayt: https://uzjtsiti.uz; e-mail: jtsiti@sport.uz

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 22-sentabrda 1007-son raqam bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Muassasa shaklidagi “Yangi media ta'lim markazi” nodavlat-notijorat tashkiloti (STIR 207342964) muassislarning 23.02.2026-yil 23-fevral kungi tugatish komissiyasi qaroriga asosan ixtiyoriy TUGATILADI.
Kreditorlar o'z talablarini 2 oy muddat ichida quyidagi manzil bo'yicha taqdim etishlari mumkin.

Murojaat uchun manzil: Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Matematika fakulteti “Matematik analiz” kafedrası professori Jo'raboy Tishaboyevga onasi

MASHKURA ayaning vafot etgani munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent shahridagi filiali jamoasi, filial bosh muhandisi Farxad Ibragimovga akasi **Shavkat IBRAGIMOV**ning vafot etganligi sababli hamdardlik bildiradi.



Moziydan sado

AMIR TEMUR QISHLOQQA AYLANTIRGAN SHAHARLAR

Amir Temur Samarqand atrofida bir-biridan go'zal qishloqlar barpo etdi. Bu qurilishlar tagida katta strategik maqsadlar mavjud edi. Hozir Suriya Arab Respublikasining poytaxti bo'lgan, besh ming yillik tarixga ega Damashq, insoniyat tamaddunining ilk makonlaridan biri Misr, Iroq Respublikasining poytaxti Bag'dod, bugungi Eron hududidagi Sultoniya va Sheroz shaharlari sohibqiron hukmronlik qilgan davrda ham dunyoning eng nufuzli shaharlaridan edi. Temurbekning fikricha, Samarqand kattaligi, go'zalligi hamda tevarak-atrofining obodligi jihatidan dunyoning eng yirik shaharlaridan ham ustun turishi lozim edi. Shuning uchun Samarqand shahar, qolganlari esa uning atrofidagi qishloqlarga aylandi.

ULUG'BEKNING SO'NGGI JANGIGA GUVOH MANZIL

XIV asr oxirida asos solingan Damashq qishlog'i o'rni hozirgi Pastdarg'om tumani hududida bo'lgan. Bu qishloqda Temur so'fiy shayxlar uchun xonaqoh qurdirgan. Manbalarining ma'lumot berishicha, 1392-yili Sohibqironning xotinlari shu qishloqqa to'xtab o'tgan. Arab tarixchisi Ibn Arabshoh(1388–1450) "Temur tarixida taqdir ajoyibotlari" nomli asarida shunday yozadi: "Men G'arb tomondan Temur bino qilgan va Samarqand devorlarining haddida Dimashq deb atagan bir qasabani ko'rdim. Ushbu qasabaning masofasi Samarqanddan taxminan yarim kunlik(yo'l)dir". Damashq qishlog'i tarixi Amir Temurning nevarasi Ulug'bek(1394–1449) nomi bilan ham bog'liq. 1449-yilning kuzida bu yerda Mirzo Ulug'bek va uning o'g'li Abdullatif o'rtasida bo'lib o'tgan jang otaning o'g'ilga mag'lubi-

yati bilan tugaydi. Yengilgan hukmdor o'z poytaxti Samarqand tomon yo'l oladi. Biroq Samarqandda hokim etib qoldirilgan Mironshoh qavchin xiyanat yo'lga o'tadi. Ulug'bekni shaharga kiritmay, darvozalarni berkitib qo'yishga buyruq beradi.

KLAVIXO QO'NIB O'TGAN QISHLOQ

Samarqand janubidagi Misr qishlog'i ham Temurbek bunyod etgan obod manzillardan biri. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, Misr qishlog'i Sohibqiron tomonidan Qohira(Misr) shahri sharafiga shunday nomlangan. Qishloq yaqinida Temurning "Davlatobod" nomli bog'i joylashgan. 1404-yili Sohibqironning Samarqanddagi saroyiga yo'l olgan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo shu qishloqdan o'tgan. Misr qishlog'iga tutash bu bog'da to'xtagan ispanlar bir necha kun qishloq va bog'ni kuzatish imkoniga ega bo'lgan. Ulug'bek rasadxonasi o'rnini aniqlagan va bu yerda

qazishma ishlarini olib borgan arxeolog Vasiliy Vyatkin(1869–1932) izlanishlaridan Misr qishlog'i XX asr boshlarida Samarqand shahridan janubda, Darg'om kanalining chap qirg'og'i yaqinida, Abbos va Qoraunas ariqlari etagida yastanib yotgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi katta qadimgi manzil o'rnida mavjud bo'lganini bilamiz.

TEMURIYZODALAR TAQDIRIDAGI SHEROZ

Samarqand shahri chekkasidagi Sheroz qishlog'i ham Sohibqiron bunyodkorligi mahsuli. Ushbu qishloqning qadimgi o'rni hozirgi Bulung'ur tumani hududida bo'lgan. U ham Temurbek tomonidan XIV asr oxirida bunyod etilgan. Amir Temur vafotidan so'ng sohibqiron qoldirgan valiahdni tan olmasdan, Temurbek taxtini egallashga kirishgan Xalil Sulton 1405-yilning martida poytaxt Samarqand tomon yo'l oladi. Sheroz qishlog'i yaqiniga yetib qolganida a'yonlar Sohibqiron vasiyatini buzib, uni izzat-ikrom bilan kutib oladi va Zarafshon bo'yida amir Arg'unshoh unga shahar kaliti bilan Amir Temur xazinolari kalitini topshiradi. Shunday qilib, Xalil Sultonning muhim qadami shu qishloq yaqinida boshlanadi. Falakning gardishi bilan Samarqand taxtining Xalil Sulton ilkidan ketishi ham ayni shu qishloq nomi bilan bog'liq. Sohibqiron sarkardalaridan biri, Xalil Sultonning otabegi(murabbiyi) Amir Xudoydod Husayniy Xo'jand suvidan o'tib, 1409-yil 30-martda Sheroz qishlog'ida Xalil Sulton bilan jang qiladi. Temurbekning nevarasini yengadi va uni asirlikka oladi. Shundan so'ng u Samarqandni zabt etadi. Mirzo Xalil nomidan hukmlar bitib e'lon qila boshlaydi va Movarounnahrni egallab oladi. Bundan tashqari, 1451-yil 10-iyunda Sheroz qishlog'i yaqinida temuriy Abu Said va Movarounnahr taxtiga o'tirgan temuriyzoda Mirzo Abdulla o'rtasida jang bo'ladi. Jangda Mirzo Abdulla mag'lub etilib, Abu Said buyrug'iga ko'ra o'ldiriladi. Shunday qilib, Sheroz qishlog'i yaqinidagi jang natijasida Abu Saidning 1451–1489-yillardagi hukmronligi boshlanadi.

Gulnora ALLAYOROVA,
Jarqo'rg'on tumanidagi
2-texnikumning
tarix fani o'qituvchisi



ICHINGDAGI JADIDNI UYG'OT!

Zamondoshim, senga murojaat:
Bordir senda ilm-u shijoat.
G'aflat bosib yotmagin faqat,
Ichingdagi jadidni uyg'ot!

Behbudiylar, Fitratlar uchun,
Avloniydek hikmatlar uchun,
Erk istagan millatlar uchun
Ichingdagi jadidni uyg'ot!

Qurol qilgin g'oyalarini,
Toptamagin soyalarini,
Zabt et bilim qoyalarini,
Ichingdagi jadidni uyg'ot!


Tarix berar, ol sabog'ini,
Qatag'onning o'chmas dog'ini.
Eshit zamon qo'ng'irogini,
Ichingdagi jadidni uyg'ot!

Odam bugun odam sotmoqda,
G'arb quyoshi sekin botmoqda,
Yangi tonglar bizda otmoqda,
Ichingdagi jadidni uyg'ot!

Kitob sari yuzingni burgin,
Cho'lpon yurgan yo'llardan yurgin.
Ko'p uxladig g'aflatda, turgin,
Ichingdagi jadidni uyg'ot!

Chiqarmaylik qo'ldan imkonni,
Lol qoldirib butun jahonni.
Kel, quraylik O'zbekistonni,
Ichingdagi jadidni uyg'ot!

Charos
ABDULLAYEVA,
Yangihayot
tumanidagi
329-maktabning
tarix fani
o'qituvchisi



Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-6077. Tiraji 5414.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (55) 512-01-50



"Ma'rifat"dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va mual-
lfiga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100099, Toshkent shahri,
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni
skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.